

Xurvaliyeva Tarmiza latipovna

# MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYAT



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗІRLІГІ

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYAT

DARSLIK

70110201 - *Ta'lím-tarbiya nazariyasi va metodikasi*  
*(maktabgacha ta'lím)*

TOSHKENT-2023

**T.L.Xurvaliyeva / Maktabgacha ta'limga innovatsion faoliyat / Darslik**  
- Chirchiq, "City of book", 2023 - 136 b.

**Mas'ul muharir:**

**X.I.Ibragimov**-Pedagogika fanlari doktori, professor.

**Taqribchilar:**

**SH. K. Xojamberdiyeva** - Namangan davlat uneversiteti "Maktabgacha ta'limg metodikasi" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc).

**L.Q.Narimbayeva** - Chirchiq davlat pedagogika uneversiteti "Maktabgacha ta'limg metodikasi" kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Mazkur darslikda "Maktabgacha ta'limga innovatsion faoliyat" fanining nazariy masalalari, "Innovatsiya" tushunchasi, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayon, innovatsiyalarini tashkil etish bosqichlari, "Maktabgacha ta'limg va tarbiya to'g'irisida" qigonunda inovatsiyaga oid vazifalar, maktabgachata'limg tashkilotlarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari, ilg'or pedagogik tajribani shakllantirish, o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish, innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalartushunchasi, maktabgacha ta'limga loyihalashtirish, multimedia vositalari va ulardan foydalanish, shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'limg texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari, bolalarga tanlash erkinligi, shaxsiy mas'uliyat yuklash xususiyatlari, maktabgacha ta'limg tashkilotlarida muammoli o'qitish, vebinar, loyihalashtirish texnologiyalari, maktabgacha ta'limga axborot texnologiyalarining nazarij jihatdan asoslangan.

Darslik maktabgacha ta'limg yo'nalishi talablari, magistrler va maktabgacha ta'limg tashkiloti metodist va tarbiyachilarga, ilmiy izlanuvchilarga mo'ljallangan.

*Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limg, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 sentabrdagi 438-soni buyrug'iiga asosan chop etishga ruxsat etilgan.*

ISBN 978-9910-780-01-1

© T.L.Xurvaliyeva, 2023

©«City of book», 2023

**KIRISH**

Yangi O'zbekiston qurishning asosini bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyot tashkil etilishini nazarda tutgan holda, barcha sohalarni rivojlantirishda innovatsion faoliyatga urg'u berish muhim. Innovatsiyalarini yaratishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish va tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, vazirliklar, idoralar va boshqa manfaatdor tashkilotlar takliflari asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalgaoshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH. Mirziyoev tomonidan 2020 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" qonuni tasdiqlangan. Ushbu qonunda innovatsion faoliyat sub'ektlarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashadi, innovatsion faoliyat natijalarini joriy etishga doir samarali mexanizmlarni shakllantirish, innovatsion faoliyat sub'ektlari uchun kadrlarni tayyorlash vazifasi belgilangan. Qonunga asosan, innovatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi, mahsulotga oid innovatsiyalar, jarayonga oid innovatsiyalar, marketingga oid innovatsiyalar, tashkiliy innovatsiyalar. Innovatsiyafuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniладиган, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydiganyangi ishlana. Maktabgacha ta'limg jarayonida innovatsion faoliyat va innovatsion jarayon, innovatsiyalarini tashkil etish bosqichlari muayyandidaktik talablar asosida amalga oshiriladi.

Keltirilgan vazifalar asosida mazkur dasrlikni yaratildi. Bundainnovatsion texnologiyalarning rivojlanish tarixi, olimlarning g'oyalari, maktabgachata'limg tashkilotlarida innovatsion faoliyatni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari, ilg'or pedagogik tajribani shakllantirish, o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanishyuzasidan ma'lumotlar bayon qilingan. SHuningdek darslikdainnovatsion texnologiyalarning asosiy turlari, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalartushunchasi, maktabgacha ta'limga loyihalashtirish, multimedia vositalari va ulardan foydalanish, shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'limg texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari, bolalarga

<sup>1</sup> Узбекистон Республикасининг Президенти Ш.Мирзиёев "Ўзбекистон Республикаси "Инновацион фаолият тўғрисида" конун. ЎРҚ-630-сон. 2020 йил 24 июл.

tanlash erkinligi, shaxsiy mas'uliyat yuklash xususiyatlari, maktabgacha ta'limga tashkilotlarda muammoli o'qitish, vebinar, loyihalashtirish texnologiyalar haqidafikr-mulohazalar bildirilgan. SHu nuqtainazardan mazkur darslikda 70110201 –

Ta'limga tarbiya nazariyasi va metodikasimaktabgacha ta'limga yo'nalishidagi magistrler "Maktabgacha ta'limga innovatsion faoliyat" o'quv modulida o'qitilishi mo'ljallangan mavzular qamrab olingan. SHu bilan bir katorda, darsliklalaba va magistrler gakurs bo'yicha egallagan nazariy bilimlarini mustahkamlash va undan amaliyotda foydalanish kompetensiyasini shakllantiradi. Buning uchun esa bir kator vazifalarni amalga oshirish taqozo etiladi. Xususan, Davlat ta'limga standartlarining asosiy talabi hisoblangan ijodiy tafakkur yurituvchi barkamol shaxsni shakllantirish, maktabgacha ta'limga yunalishi magistlarini innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish, ilg'or pedagogik tajribani shakllantirish, o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish, innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari, interfaol metodlar, maktabgacha ta'limga loyihalashtirish, multimedia vositalari va ulardan foydalanish, e shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'limga texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari, bolalarga tanlash erkinligi, shaxsiy mas'uliyat yuklash xususiyatlari, maktabgacha ta'limga tashkilotlarda muammoli o'qitish, vebinar, loyihalashtirish texnologiyalari, maktabgacha ta'limga axborot texnologiyalarining tatbiq etishmalakalarini shakllantirish hamda amaliyotda uchraydigan ta'limi muammolarni bartaraf etishga oid tajribalarni xosil qilish uchun zamin yaratish kabilari. YUkoridagi vazifalarni hal etish professor-o'qituvchilardan chuqur bilim, pedagogik maxorat va bilimdonlik talab etiladi. SHu nuktai nazardan oliy ta'limga muassassalari professor-o'qituvchilariga metodik manba sifatida mazkur darslik takdim etildi.

I. BOB.  
**PEDAGOGIK INNOVATSİYA OBYEKT, MAVZU VA ASOSIY  
TUSHUNCHALAR**

**1.1. Pedagogik innovatsiyalarning kelib chiqish tarixi. Pedagogik innovatsiyalarning dastlabki tushunchalari**


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligini e'tirof etilgan. "Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g'oyalalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi".<sup>2</sup>

Innovatsiya atamasining mohiyatini tahlil qilsak. "Innovatsiya" tushunchasi dastlab XIX-asrning ilmiy tadqiqotlarda paydo bo'lib, lotincha "inglizcha" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" (yoki "o'zgarish"), "in" qo'shimchasi esa lotinchadan "yo'nalishida" deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit "Innovatio" ko'rinishida tarjima qilsak – "o'zgarishlar yo'nalishida" deb izohlanadi.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri-pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillardan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolinhamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik

<sup>1</sup> Мирзиеев Ш.М. Узбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисига Мурожаатномаси. – Т.2018, 19-20-бетлар

innovatsiyalardan xabaror bilish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.



Amerikalik psixolog E.Rodgers o‘z tadqiqotlarda innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo‘lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo‘lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o‘rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o‘rgangan.

“Innovatsiya” tushunchasi o‘zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o‘zgarishlar natijasida XX-asning boshida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushu terminni ilmiy qo’llashga kirtgan dastlabki olimlardan edi. Innovatsiyaga har qanday turdagи yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yanglish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi Ilm-fan – bu ma’lum mablag’larni bilimlar va g’oyalarga aylantirish. Innovatsiyalar – bu bilimlar va g’oyalarni mablag’larga aylantirishdir. Ixtiro – bu yangi konsepsiyanı yaratish demak. Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko’rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

Iqtisodiy adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasiga ta’rif berish uchun turli xil yondashuvlar paydo bo‘la boshladi. E.A.Utkinning yondashuviga ko‘ra innovatsiya deganda “ishlab chiqarishga joriy etilgan ob’ekt tushuniladi”<sup>3</sup> Stepanovaning fikriga ko‘ra, “innovatsiya” tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi<sup>4</sup>.

L.Vodachek va O.Vodachkova innovatsiyalarni “korxona faoliyatining tizim sifatida maqsadli o‘zgarishi”<sup>5</sup> deb ta’riflaydi. “Innovatsiya” tushunchasining yuqoridagi ta’riflari o‘zgarishlarni mikroiqtisodiy xususiyatini aks ettiradi va bu yerda ular tashkilot faoliyatini modernizatsiyalash omili sifatida ko’rib chiqilgan. B.Santoning fikriga ko‘ra, innovatsiya - bu yuqori sifatli texnologiyalar yaratiladigan texnik, ijtimoiy-iqtisodiy jarayon.

L.A.Baev va E.V.Shugurov fikriga ko‘ra, “innovatsiya” tushunchasini aniqlashda quyidagi yondashuvlar mavjud ob’ektga ko‘ra yondashuv; jarayonli yondashuv; ob’ekt-naflilik yondashuv; jarayon-naflilik yondashuv; jarayonli-moliyaviy yondashuv<sup>6</sup>

**Ob’ektga ko‘ra yondashuvga** asosan, ilmiy-texnik taraqqiyotning natijasi - yangi texnika va texnologiya - innovatsiyalar bo‘lib xizmat qiladi. Ob’ekt mezonı quyidagilarni alohida ajratib ko’rsatish imkonini beradi: bazis innovatsiyalar - yirik ixtirolarni amalga oshirishdan iborat, texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga sabab bo‘lgan innovatsiyalar; takomillashtiruvchi innovatsiyalar, ya’ni ilmiy-texnologik siklning barqaror rivojlanishi bosqichida ko‘p uchraydigian kichik ixtirolarni amalga oshiruvchi innovatsiyalar; soxta innovatsiyalar (ratsionalizatorlik innovatsiyalar) texnika va texnologiyalarning eskirgan avlodlarini qisman takomillashtirishga yo’naltirilgan bo‘lib, odadta texnik taraqqiyot sekinlashishiga olib keladilar, chunki ular jamiyatga hech qanday samara bermaydi yoki salbiy ta’sir ko’rsatadi. **Ob’ekt-naflilik yondashuviga ko‘ra**, innovatsiya yangi ilmiy-texnik yutuqlarni joriy etish asosida ishlab chiqarilgan yangi

<sup>3</sup> Уткин Э.А. Управление компаниями. Москва, 1997.-304 с.

<sup>4</sup> Степанова И.П. Инновационный менеджмент. Учебник. 2014.-277 с

<sup>5</sup> Водачек Л., Водачкова О. Стратегия управления инновациями на предприятии. Москва, Экономика, 1989.-167 с.

<sup>6</sup> Баев Л.А. Системный подход к выявлению инноваций. 2008- 34 с.

iste'mol qiymati sifatida ta'riflanadi. Bu yerda innovatsiyaning naflilik vazifasi ustunlik qiladi - jamiyatning yuqori naflilikka ega bo'lgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyati. **Jarayon-naflilik yondashuvi** doirasida ob'ekt-naflilik yondashuvdan farqli o'laroq, "innovatsiya" kategoriyasiga yangi amaliy vositani barpo etish, tarqatish va qo'llashning yaxlit jarayoni sifatida qaraladi. **Jarayon-moliyaviy yondashuv** nuqtai nazaridan, innovatsiya - bu yangiliklarga sarmoya kiritish, yangi asbob-uskunalar, texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslarni investitsiyalash jarayoni<sup>7</sup>.

"Innovatsiya" kategoriyasining tavsifi shundan dalolat beradiki, uning asosiy elementi sifatida innovatsion faoliyatning pirovard natijasi - yangi mahsulot xizmat qiladi, shuningdek, yangidan yaratilgan yoki takomillashtirilgan texnik-texnologik jarayon hisoblanadi.

**Ta'lim innovatsiyalari** - talim soxasidagi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondoshuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardir.

Yangilik - vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi

Y.Shumpeterning innovatsion nazariyasida noaniqlik va innovatsiya o'tasidagi o'zaro bog'liqlik borligi ko'p marotaba ta'kidlangan<sup>8</sup>. Shu bilan birga, innovatsiyalar bir qator tashqi omillar (yangi qonunlar, globallashuv va boshqalar) ta'sirida faollashadi, ularning asosida innovatsiyalarni ishlab chiqarish yoki naflilik funksiyalarning o'zgarishi sifatida tavsiflash mumkin. Innovator-tadbirkor ishlab chiqarish va iqtisodiy jarayonga noaniqlikni kiritadi.

## 1.2. Innovatsiya va jamiyat

Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informatsion-innovatsion davrida kechmoqda. Bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi - bu

<sup>7</sup> Норов А.Э. Инновацион фаолият ва унинг натижаларини тижоратлаштиришининг назарий ва услубий асослари "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. (№ 00045) <http://iqtisodiyot.tsue.uz № 1- 2020 y.116-131 б>.

Шумпетер<sup>8</sup> И.Н.Теория экономического развития. Москва, Прогресс, 2010. - 344 с

8

ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni jadal o'zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan o'zgarishlardir. Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga krib keladi.Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan **innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz**. Bu bejiz emas, albatta. Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi (2020 yil 24 iyul) "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlanish yili" Davlat dasturida nazarda tutilgan tegishli huquqiy zaminni yaratish borasidagi muhim qadam bo'ldi. Ushbu qonun taraqqiyotimizni kafolatlovchi, uni yanada jadallashtiruvchi yangi g'oya, yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda hayotga joriy etilishining ishochli huquqiy mexanizmlarini mustahkamlab benihoya muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunda ifodalangan ta'rifga, ko'ra innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalilanidigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma. Innovatsion faoliyat esa, yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyatdir<sup>9</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda O'zbekiston 141 ta davlat orasida 122- o'rinni egallagan. 2020 yildagi uzoq davom etgan tanaffusdan so'ng, mamlakatimiz 131 ta davlat orasida 29 pog'onaga ko'tarilib,

<sup>9</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг "Узбекистон Республикаси Инновацион ривожланни вазирлиги хузурида Илгор технологиялар марказини ташкил килини түгрисида" га 104.2018 й. ПК-3674 Каори

93-o'rinni egallagan holda reytinga qaytdi. 2021 yilda mamlakat 86-o'rinni egallagan. Shu bilan birga, joriy yilda innovatsiyalarga sarflangan mablag'lar bo'yicha O'zbekiston 7 pog'onaga ko'tarilib, 68-o'rinni, innovatsiyalar natijalari bo'yicha esa 9 pog'onaga ko'tarilib, 91-o'rinni egalladi.

Global innovatsion indeks (The Global Innovation Index) — bu AQShning Kornell universiteti, Fransiyaning Insead biznes maktabi va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajasini baholovchi tadqiqotdir. Global innovatsiyalar indeksi 81 ko'rsatkichdan iborat bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotning turli darajalarida bo'lgan mamlakatlarning innovatsion rivojlanishini tavsiflaydi.

Ushbu indeks ikki guruh ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymati asosida hisoblanadi. Birinchi guruhga innovatsiyalarni joriy etish (Innovation Input) uchun mavjud resurslar va shart-sharoitlar, institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, ichki bozor va biznesning rivojlanganlik darajasi kiradi. Ikkinci guruhga innovatsiyalarni joriy etish (Innovation Output) natijasida erishilgan amaliy natijalar – texnologiyalar va iqtisodiy bilimlar rivojlanishi, shuningdek, ijodiy faoliyat natijalari kiradi.

Mamlakatimizda o'zining huquqiy asoslariga ega bo'lib, keng quloch yozayotgan innovatsion faoliyat quyidagi asosiy prinsiplarga tayanadi:

- innovatsion faoliyatning erkinligi; innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan teng foydalanilishini ta'minlash;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning oshkoraliqi va aniq yo'naltirilganligi;
- raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish;
- axborotni erkin almashish; innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish;
- fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik.

Qonunda innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, Hukumatning, vakolatli davlat organi (Innovatsion rivojlanish vazirligi), davlat boshqaruvi organlarining,

qolaversa, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli vakolatlari mufassal belgilangan.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning asosi bo'lib tashkilotning har xil sohalarida qo'llaniladigan va innovatsiyalarni yaratilishiga sabab bo'ladigan ixtiolar va kashfiyotlar xizmat qiladi. Amaliy qo'llanilishidan so'ng ixtiolar innovatsiyalarga aylandi. Ular jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarining faol bo'g'ini hisoblanmoqda. Zamonaviy makonni bunday o'zgarishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. "Innovatsiya" tushunchasi deyarli barcha sohalarda qo'llaniladi, uy sharoitida ham, professional darajada ham, shu jumladan davlat rahbarlari va xalqaro tashkilotlar darajasida ham dolzarb mavzu hisoblanadi.

Inson intellektual faoliyati, uning fantaziysi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtiolarini va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoli tahlil asosida aniqlash.
2. Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
3. O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad rahbarning yangilikka intiluvchanligini, o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalaniib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

**Innovatsiya** - boshqarish shakllarining yangi turlarini ishlab chiqish va amalda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyatdir.

**Innovatsiya** - yangi kiritilgan sharoit, jamiyatning rivojlanishi ta'sirida o'zgarayotgan inson ehtiyojlarini qondirish uchun yangi amaliy vositani yaratish, tarqatish va foydalanishning majmuaviy jarayonidir.

Kelib tushayotgan fikrlarni tizimga solish. Muassasa faoliyatini rivojlantirishga doirma'lumotlar yig'ish.

G'oyaning aniqlanishi.  
G'oyani amaliy jihatdan amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlashi.

Amalga oshirish dasturini ishlab chiqish.

Vazifalarni taqsimlash.

Natijalarni tahlil qilish.

Psixolog olim B.Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadni belgilashda, tahlil etishda, kerakli fikr va mulohazalarga kelishda muhim

**Bilish-** ta'riflash-tasvirlash-nomlash-ijod qilish.

**Q'llash-** foydalanish- namoyish etish-aniqlash-tatbiq etish.

**Analiz-** guruhlash-taqsimlash-tekshirish-ajratish.

**Sintez-** rejalashtirish-tizimga solish-umumlashtirish.

**Baholash-asoslash- tashhislash-o'lchash-taqqoslash**

Innovatsion rivojlanishni boshqarish mazmunini quyidagi qoidalar bilan ifodalash mumkin: - innovatsiyalarni oldindan ko'rish va rivojlantirish kerak; - yangiliklarni tezlashtirish va joriy etish zarur; - innovatsiyalarga tayyorgarlik ko'rish kerak; - innovatsion jarayonlarni ma'lum darajada to'xtatib turish va silliqlashtirilishi mumkin; - tashkilot innovatsion faoliyatini boshqarishning ma'lum darajasini ta'minlash lozim.

### **1.3. Ta'lif sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish. Ta'lif sohasidagi asosiy yangiliklar. Innovatsiyalarning mohiyati**

Hozirgi vaqtida "Innovatsiya" tushunchasi juda keng qo'llanilmokda. Innovatsiya so'zi inglizcha so'z bo'lib-«innovatsion» yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. «Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunoslar o'rganishlarida paydo bo'ldi va bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Uning bu mahnosi hozirgacha etnografiyada saqlanib qolgan.

XX asr boshlarida yangi bilim sohasi yangiliklarni kiritish, qo'llash yuzaga keldi. U mahsulot ishlab chiqarish sohasida texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlarini o'rgana boshladи. Yangiliklarni kiritish haqidagi fan - innovatika -firmalarning yangi reja, xizmatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish faoliyatiga talablar keskin oshib borishi aks ettirilgan holda paydo bo'ldi.

30-yillarda AQShda «firmaning innovatsion siyosati», «innovatsion jarayon» atamalari paydo buldi. 60-70- yillarda g'arbda firmalar va boshqa korxonalar amalga oshirilayotgan yangiliklarni empirik tekshirishlar keng quloch yoyadi. Jahan pedagogik jamoatchiligining qiziqishi maxsus innovatsion xizmat, nashriyot, jurnallar nnnovatsion maqolalar ko'rinishida bo'lyapti.

Xususan, YuNESKO qoshida ta'limi rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi mavjud bo'lib, dunyodagi turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lif masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma'lumotlar tarqatadi.

Innovatsion jarayonning mikrostrukturasini o'rganib olishlar yangilik kiritishning «hayotiy sikli, (davri)» konsepsiyasini alohida ko'rsatdilar, u yangilik kiritish vaqt davomida o'tib boradigan jarayon, degan fikrdan kelib chiqadi. Bu jarayonda yangilikning yaratilishi va ijro etilishini ta'minlovchi faoliyatlarini turlarga ajratuvchi bosqichlarga bo'linadi.

Innovatsion jarayonni bosqichlari quyidagilar:

**1-bosqich.** Yangi g'oya paydo bo'lishi yoki yangilik konsepsiyasini yuzaga kelishi, uni shartli ravishda fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalardan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

**2- bosqich.** Kashf etish vaqtি, ya'ni amalga oshgan ob'ekt, moddiy yoki ma'naviy mahsulot namunasi ko'rinishidagi yangilik yaratish.

**3-bosqich.** Yaratilgan yangilikka amaliy ko'payish topilib uni qo'shimcha ishlab mukammallashtirish amalga oshiriladi. Bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng yangilikning mustaqil mavjudligi boshlanib, yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi, bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish shartidagina amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida keyingi bosqichlar ko'rinaladi.

**4-bosqich.** Yangilikning tarqalishi uning yangi sohalarga diffuziyalarib (qo'shilib) keng tatbiq etilishidan iborat.

**5-bosqich.** Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda xususan yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi.Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo'lishi yoki uning yanada samarasi bilan almashishi bilan yakunlanadi.

**6-bosqich.** Yangilikning qo'llanilish doirasi qisqarib, yangi mahsulotlar bilan almashadi.

Pedagogika fanidag'oyalarning ishlanganlik darajasiga muvofiqlik jihatlari bo'yicha umumiy va qisman innovatsion loyihalarga shuningdek, pedagogik amaliyatda ulardan foydalanish tahlili asosida **umumiy pedagogik innovatsiyalarga ajratish mumkin,bular quyidagilar:**


1) Pedagogika fani tizimi va pedagogik amaliyotni yangi bo'limgan, biroq doimiy dolzarb va o'quv-tarbiya jarayonining umumiy g'oyalari va amaliy texnologiyalarini o'zida mujassam qilgan.

2) Insonparvalik pedagogikasining barcha nazariy qoidalari va amaliy texnologiyalarining yig'indisi jamlangan.

3) Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga yangi g'oyaviy yondashuvga asoslangan.

4) Axborotlashtirish, ommaviy kommunikatsiyalashning yangi g'oyalari va vositalarini qo'llashga asoslangan texnologiyalarni innovatsion texnologiyalar hisoblanadi.

Pedagogik tizimda innovatsion tuzilmalarining bosh yo'nalishi:



Tizim osti tuzilmalarining chuqurligi bo'yicha innovatsion yangi kiritmalarining mohiyati, sifati va maqsadga muvofiqligi haqida xulosa qilish mumkin.Yangilikdan farqli o'laroq, innovatsiya - bu iqtisodiy samara olish uchun yangiliklarni amalda qo'llashdan iborat bo'lgan hodisadir. Innovatsiyaning hayot siklining asosiy tarkibiy qismlari ko'rsatilgan.

**Bilimlar yig'ish-muammoning tahlili,** uni yechimi bo'yicha g'oya paydo bo'lishi, inovatsion taklifni shakllantirish, baholash va tanlash **Amalga oshirish-innovatsyon takliflarni yangilik kiritib amalgalashirish**

**Tarqatish** Ko'paytirish, boshqa ob'ektlarda innovatsiyalarni ko'p marotaba takroriy ishlab chiqarish

**Ommaviylashtirish** -Innovatsiyani tobora oddiy tovarga aylanishi

#### **1.4. "Maktabgacha Ta'lim va Tarbiya to'g'irisida" qig'onunda innovatsiyalar haqida. Maktabgacha ta'limni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar fanining nazariy asoslari**

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalalar tarzida namoyon bo'ladi. Xususiy yangilik munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'limgan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi.

Rossiyalik olimlar A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va b. esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan.

Bu o'rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi ikki yondoshuv mavjud ekanligini e'tirof etadi:

1) yangilikning individual mikro darajasi (unga ko'ra qandayir yangi g'oyaga amaliyotga joriy etiladi);

2) alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o'rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'sirlanishi, birligi, raqobati va birining o'rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi).


Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatni ifodalaydi. Mahalliy yangilik alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

**«Yangiliklarni joriy qilish»** tushunchasi, bizningcha, yangilik, hamda ana shu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayonidir.

Yangilik -bu alohida olingan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oyadir, bu g'oya ob'ektiv ravishda yangi yoki yangi emasligi ahamiyat kasb etmaydi, biz uni vaqt bo'yicha -yangilik ochilgan payt yoki undan birinchi marta foydalanilgan paytda aniqlaymiz.

**«Novatsiya» va «innovatsiya»** tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagи faqat ba'zi elementlarni o'zgartirishni vazifa qilib qo'yan bo'lsa, u holda innovatsiya bilan muloqot qilanayotgan bo'ladi. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi ugla tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.

Yangilikni joriy kilish predmet mazmuniga ko'ra uchta asosiy guruhga bo'linadi:



Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi.

### 1.5.Ta'lilda innovatsiyalarni tavsiflash: ta'lim tizimidagi yangiliklar; ta'limga tashkil etishdagi innovatsiyalar; ta'lim vositalari, usullari va shakllari

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan ko'plabme'yoriy-huquqiy hujjalarning qabul qilinishi tufayli ilm-fan va innovatsiya faoliyati sohasidagi asosiy yo'nalishlar rivojlanish yo'liga tushib oldi<sup>10</sup>. Ilmiy-texnik salohiyat mustahkamlangani, ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yirik muammolarini hal etishga yo'naltirilgani, mamlakatimizda innovatsiya faoliyatini faollashtirish, belgilangan vazifalarni hal etish uchun katta miqdorda valyuta mablag'lari ajratilayotgani shular jumlasidandir.

Innovatsiyaga har qanday turdagи **yangilik** sifatida emas, balki mavjud tizimning **samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil** sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yanglish fikrplashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi.

Milliy innovatsiya tizimi ilm-fan, sanoat va jamiyat o'rtasida iqtisodiyotni rivojlantrish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, innovatsion taraqqiyot ehtiyojlari esa ilmiy faoliyat ravnaqini belgilab beradi va rag'batlantiradi. Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega.

Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

<sup>10</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг "Инновацион гоялар, технологиялар ва лойиҳаларни амалий жорий қилиш тизимини юнада таомиллаштириши чора-тадбирлари тўгрисида" ти04.2018 й. ПК-3682Карори



Oliy ta'limga muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o'ziga xos yondoshuvlar kuzatilai. Ular quyidagilardan iborat:

**Gnostik-dinamik yondoshuv** (unga ko'ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tadbiq etilishi, xorij mamlakatlarda yaratilgan ilg'or pedagogik (ta'limi) innovatsiyalar va ularni o'rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni izchil o'zlashtiradilar, o'z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo'llash borasidagi tajribalarni o'zlashtiradilar).

**Individual faoliyatli yondoshuv** (bunda pedagoglar o'zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatları, tajribalariga tayangan hola amaliyo faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muayyan izchillikka erishadilar).

**Ko'p sub'ektli (dialogik) yondoshuv** (mazkur yondoshuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o'zaro, xususan, ko'p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlarini bilan tanishish, ularning ta'limga innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzlucksiz qo'llashga doir tavsiya hamda ko'rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

**Insonparvarlik yondoshuvi** (ushbu yondoshuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo'llashda ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, xohish-istiklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

**Individual-ijodiy yondoshuv** (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlasmalar asosida tashkil etadi).

**Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi:**  
**Ilm-fan** – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish.

**Innovatsiyalar** – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir.

**Ixtiro** – bu yangi konsepsiyanı yaratish demak. **Innovatsiya** – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

**Innovatsiya**-bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatlari o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziysi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

### Savol va topshiriqlar

- Pedagogik innovatsiyalarning kelib chiqish tarixiga izoh bering
- Pedagogik innovatsiyalarning dastlabki tushunchalari haqida olimlarning fikrlarini aytинг.
- Pedagogik tizimda innovatsion tuzilmalarning bosh yo'nalishlari qaysilar?
- Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlariga misol keltiring.
- Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi nimada?
- Yangilikni joriy kilish predmet mazmuniga ko'ra nechtaasosiy guruhg'a bo'linadi:

7. Innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan qandayyondoshuv larmavjud?
8. Innovatsion jarayonni bosqichlari nechata va ularni izohlab bering.
9. Innovatsiyaningasoschisi kim?
10. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga nechabosqichda amalga oshiriladi?

## II BOB.

### PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARNING JORIYLANISHINI TASHKIL ETISH

#### 2. 1.Pedagog va tarbiyachilarining innovatsion faoliyati

Pedagog bilan bola o'rtasida aloqalarning o'rnatilishi tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar samaradorligining asosiy sharti quyidagilar:

Bolani, uning his-tuyg'ulari, kechinmalari, xohish-istaklarini to'la qabul qilish. Bolalar muammolari yo'q. Bolalarning his-tuyg'ulari kechinmalar kuchiga ko'ra kattalarning his-tuyg'ularidan kam emas. Bundan tashqari, yosh xususiyatlariga, tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi, shaxsiy tajribaning kamligi, irodaning kuchsizligi, his-tuyg'ularning aql-idrok ustidan ustun kelishiga ko'ra bolaning kechinmalari alohida ta'sirchanlik kasb etadi va uning keyingi hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tarbiyachi bolani tushunishi va qabul qilishini ko'rsatishi juda muhim. Bu tarbiyachi bolaning xatti-harakati va ishlariga sherik (hamdard) bo'ladi, degani emas. Qabul qilish - bolaning fikriga qo'shilish, unga rozi bo'lish emas.

Tanlash erkinligi. Tarbiyachi turli yo'llar bilan muayyan natijagaerishishga harakat qilishi shart emas. Tarbiyada «Maqsad har qanday vositalarni oqlaydi», degan shior o'rinsizdir. Pedagogzinhor bolani majbur qilishi, biror narsani bo'yniga olishga ko'ndirishi kerak emas. Har qanday tadqiq istisno qilinadi. Bola o'zining shaxsiy qarori (fikri)ga haqli ekanligini tarbiyachi yodda tutsa yomon bo'lmasdi, bu fikrni tarbiyachi o'z nuqtai-nazari bo'yichanoto'g'ri hisoblansaham.

Tasavvur qiling, yig'lab turgan yetti yoshli Umida oldingizga kelib: «Dilnoza men bilan do'stlashishni istamayapti», -deydi. TarbiyachiUmidani chalg'itishga urinib ko'rар. Mana shularning o'zi muomaladagi to'siqlardir. Chunki bu va boshqa hatti-harakatlarbolaning yig'isini to'xtatishga qaratilgan, ular haqiqatda bola pedagogdan kutayotgan narsaga mos emas.

To'siqlarning verbal (og'zaki) ifodasini tavsiya etamiz.  
So'zlar bilan yupatish: «Tinchlan, yig'lama, hammasi yaxshi bo'ladi».

So'rab bilib olish: «Nima uchun Dildora sen bilan do'stlashishni xohlamayapti? Nima bo'ldi? Uriшиб qoldilaringmi? Sen uni hafa qildingmi? va hokazo.

Maslahat: «Yig'lashni to'xtat, Dildoraning oldiga yana bor-da, sen bilan do'stlashishni istamasligi sababini bil, o'zingga boshqa do'st top» va hokazo.

Muammodan chetga qochish: «Kel, sen bilan hozir o'ynaymiz, ... yasaymiz va hokazo». (bolaning ko'z-yoshlarini pisand qilmaslik).

Buyruq: «Darhol yig'lashni bas qil! Qani, uvvos solishni to'xtat, eshityapsanmi, senga aptyapman?!».

Pand-nasihat: «Aql bilan o'ylash kerak, arz qilish yaramaydi, yaxshi qizlar urishmaydilar, ular do'stlashishni biladilar va o'z qiyinchiliklarini o'zları hal etadilar, yaxshi qizlar hech mahal ...» va hokazo.

Gumon, taxmin: «Agar Dildora sen bilan do'stlashishni xohlamayotgan bo'lsa, o'zing biror narsa qilgandirsan, balki sen uni hafa qilgansan?». Ayblast: «Agar u sen bilan do'st bo'lishni istamas ekan, o'zing aybdorsan».

Bolaning his-to'ygularini rad etish: «Yig'lama, hafa bo'lsa, bunday arzimagan narsaga iztirob chekish yaramaydi. Buni qaranga, Dildora u bilan do'st bo'lishni xohlamas emish».

Tanqid: «Albatta, senga o'xshagan yig'loqi qiz bilan hech kim do'st bo'lmaydi».

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi)
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (lokal, modulli, tizimi)
- kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan)

## 2.2.Innovatsiyalarni amalga oshirish usul va mezonlari

Metod-biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan birnechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytildi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, boshchada o'rgatish, tarbiyachi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Shunga o'xhash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xhash yo'llardan foydalaniш mumkin. Shu yo'llardan foydalaniш harakatni amalga oshirishda harturli usullarni qo'llaniladi.

Harakatni amalga oshirish **usuli** deb tanlangan ma'lum yo'ldan foydalangan holda oldindan ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun qo'llanadigan qarakat usullarini aytildi. Masalan, savod o'rgatish maqsadida yuqorida aytilgan yo'llardan istalgani tanlangandan keyin, shu har bir yo'l uchun maqsadga muvofiq deb hisoblangan usullarni qo'llaniladi. Bular, oilada, bog'chada, maktabda savod o'rgatishni amalga oshirishda tarbiyachining, tarbiyachining qo'llaydigan ish usullarini; kompyuter, kitob va boshqa ta'lim-tarbiya vositalarini belgilangan maqsadgamuvofiq qo'llash usullarini o'z ichiga oladi. Shunga o'xhash sanoq arifmetik amallarni o'rgatish yuzasidan ham tanlangan har bir yo'l o'zigaxos usullarni qo'llashni nazarda tutadi.

Innovatsiyalar, odatda, bir necha muammo kesishgan paytda vujudga keladi va umuman yangi masalalarni hal qiladi, pedagogik jarayonning uzlucksiz yangilanib borishiga olib keladi.

1. Ma'lum ilmiy asosga, konsepsiya tayanish.
  2. Tizimlilik, o'quv-tarbiya jarayoni va uning qismlarining o'zaro mantiqiy bog'lig'ligi.
  3. Samaradorligi, ta'lim standartlariga erishishni kafolatlashi, sarflash talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning me'yor darsida ekanligi.
  4. Boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi.
- Innovatsiya mezonlarikuyidagliрdan iborat:

- Innovatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi;
- Ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi;
- Metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimnitakomilashtiradi.

Innovatsiya tizimli, yaxshi va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi.

### **2.3.Innovatsion jarayon obyekti. Innovatsiyalarni tashkil etish va joriy etish**

Har qanday mamlakatning jadal ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi asosini innovatsiyalar tashkil etishi hech kimga sir emas. Shuning uchun barcha davlatlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida innovatsion rivojlanishni joriy etishi, yangi g'oya va taraqiyotning noan'anaviy usullarini qo'llashi tabiiy holdir. Shunday ekan, innovatsion rivojlanishga xos taraqqiyot yo'llari hamda ilg'or ish uslublarini tadqiq etish, uni O'zbekiston sharoitida qo'llash masalalari va buning uchun mamlakatda yaratilgan me'yoriy-huquqiy asosning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bugungi davriga mos kelishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Innovatsion jarayon obyekti-ta'limgartibiyajarayoniningishtiokchilar.**

**Innovatsion jarayon** - bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o'zgarib boruvchi yaxlitligidir.

**Ta'limgartibiyajarayonidagi innovatsion o'zgarishlar** - ta'limgartibiyajarayoniga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita tarbiyachi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroficha o'rganilgan.

**Innovatsion faoliyat** - bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishslash bo'lib, u uzoq vaqt talab qiladi.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy tamoyillarlarga tayanadi:

- innovatsion faoliyatning erkinligi; innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan teng foydalanimishini ta'minlash;

- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning oshkoraliyi va aniq yo'naltirilganligi;
- raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish;
- axborotni erkin almashish; innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish;
- fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik.

P.Podlsasiyning fikriga ko'ra, ta'limgartibiyajarayonidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- tarbiyachi faoliyatining o'zgarishi;
- o'quvchi (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'limgartibiyajarayonining o'zgarishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'limgartibiyajarayonining o'zgarishi;
- ta'limgartibiyajarayonining o'zgarishi;

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi



Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyat-yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga karatiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'limga rivojiga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya-ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

### Savol va topshiriqlar


1. Tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar samaradorligi nimalarga bog'liq.
2. Ta'limga tizimidagi innovatsiyalarni tasniflarini keltiring.
3. Innovatsion faoliyat qanday tamoyillarlarga tayanadi?
4. Innovatsiya mezonlariqaysilar?
5. P.Podslasiyningta'limga innovatsionlariga oid qarashlarini aytib bering.
6. Pedagogning innovatsion faoliyatning belgilarini aniqlang.
7. Innovatsion jarayonga ta'rif bering.
8. Innovatsion faoliyat mazmunini yoriting
9. Innovatsiyaga ta'rif bering.

### III BOB.

## ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBANI SHAKLLANTIRISH, O'RGANISH, UMUMLASHTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH

### 3.1. "Ilg'or pedagogik tajriba" tushunchasi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishbosqichlari

Ta'limga islohotlarining hozirgi bosqichdagi vazifalarini muvaffaqiyatln hal etilishiga uning amaliyot bilan mustahkam aloqasi yo'lga qo'yilgandagina erishish mumkin bo'ladi. Bu boradagi muammolarni hal etishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirish va tadbiq qilib borish muhim ahamiyat ega kasb etadi.




Ilg'or pedagogik tajriba tarbiyachilar tomonidan qo'llaniladigan shakllar metodlar usul va vositalar majmuasida yoki boshqacha aytganda uning tuzgan pedagogik tizimini ifodalovchi texnologiyasida namoyon bo'ladi. Ilg'or pedagogik tajribalarni om-

malashtirish - aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarning umumlashgan tizimidir.

Pedagogikada oddiy, ilg'or va ijodiytajribalar o'zaro farqlanadi.

**Oddiy tajriba** - ma'lum metodik tavsiyalarni tarbiyachi tomonidan o'z imkoniyatlari doirasida muvofiqlashtirib qo'llashni anglatadi. **Ilg'or tajriba** - pedagogika ilmida ilgari surilgan yangi g'oyani ijodiy qayta ishslash va aniq vaziyatlarga tadbiq qilishda namoyon bo'ladi.

**Ijodiy tajriba** - tarbiyachining mavjud bo'lganlaridan jiddiy farq qiluvchi, mavjud ilmiy-edagogik qarashlardan tashqariga chiquvchi, yanada mukammalroq yangi g'oyaning amaliy aks ettirilishidir.



Ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va tadbiq qilishdan maqsad ta'lim jarayonini amalga oshirishning yanada mukammal usullarini joriy qilish orqali uning mazmunini takomillashtirib borishdan iborat. Ilg'or tajribalarni ommaviy tarzda o'rganish va tadbiq qilish o'quv-tarbiyaviy jarayonlar samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ta'lim muassasalarining rahbarlari hamda pedagogik jamoalar har bir tarbiyachida ijodiy

ishslash sifatlarini tarbiyalash yo'llarini topishi, rag'batlantirish hamda ommalashtirishga harakat qilmog'i lozim. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va shunga asoslangan yangi pedagogik hodisalarini va qonuniyatlarni kashf qilish o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv materialini o'qtishning yangi mantiqini amalga kiritish, bilish faoliyati muammolari yechimini topishga, yangi tipdagi o'quv jarayonlarini modellashtirishga turki berishi mumkin.

Pedagogiktajribalarni o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak: 1. O'rganish uchun o'zida ta'limning zamonaviy muammo-lari yechimini aks ettiruvchi tajribani tanlash; 2. Aniqlangan tajribani uzoq davrga mo'ljallab ishlab chiqilgan dastur asosida, o'quv yurtining butun ko'lamin qamrab olgan holda o'rganish;

3. Bu boradagi tadbirlarga o'rganilayotgan tajriba darajasida faoliyat ko'rsata oluvchi tarbiyachilarini imkon darajasida ko'proq jalg qilish; 4. O'rganilayotgan muammoning o'zaro ta'sir qiluvchi va tuzatuvchi xarakterga ega ekanligini e'tiborga olish; 4 Ilg'or pedagogik tajribani uning rivojlanib borish jarayonida o'rganish;

5. Qo'llanilayotgan metod va usullarning erishilgan natijalar bilan bevosita uzviy bog'liqlik omillarini aniqlash.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish o'ziga xos mantiqqa va muayyan **bosqichlarga** ega bo'lib, bu jarayonda quyidaga mezonlarga amal qilishlozim.

**1. Rejalashtirish.** Tajribani o'rganish rejasini ishlab chiqish, vazifalarni o'zaro taqsimlash, olib boriladigan ishning aniq shakl va metodlarini belgilab olish.


#### **2. Tashkillashtirish vatez moslashuvchanlik.**

**3. Olingan axborotlardan o'rini foydalanish.** Bunda olingan axborotlarni nafaqat vizual kuzatib, bevosita olingan ma'lumotlar, balki yashirin, ichki bog'lanishlarni ham o'zida aks ettirishi kerak.

**4. Nazorat va hisob ishlarini yuritish** (bolalar o'zlashtirish darajasi, har bir metod yoki usulning qisman yoki to'laligacha amalga oshirish uchun sarflangan vaqt, foydalanilgan ko'rgazmali vositalar).

#### **5. Tajribani ilmiy asoslashga e'tibor qaratish.**

Ijodkor tarbiyachilar ilg'or tajribalarini ommalashtirish ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:



Ilg'or tajribalarni ommalashtirishda adabiyotlarni tahlil qilish, daliliy materiallarni yig'ish, kuzatish, pedagogik tahlil va umumlashtirish taqqoslash va tasniflash, tajriba-sinov o'tkazish, bilimlarni nazorat qilish metodlari vositasida amalga oshiriladi.

### 3.2. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish rejasini tuzish, olingan natijalarni tahlil qilish; tavsiyalarni ishlab chiqish.

Pedagogik ijodkorlik manbai - **bu pedagogik tajribadir**. Pedagogik tajriba - muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba pedagogning o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishini, talabalarning ta'lif-tarbiyasiga yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz. Ijodiy ishlaydigan pedagog faqat talabalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiya berish, *ilg'or ish*

**tajribalarini o'rganish** bilangina cheklanib qolmasdan, taraqqiyotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti pedagogning ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita bilish, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi.

**Pedagogik tajriba** pedagogning faoliyatini samarali tashkil qilish, ta'lif oluvchilarni tayyorlashning har bir vaziyatida mahorating yuqori darajasiga erishishda uzlusiz ravishda olib boriladi. Pedagogik mahorat o'z-o'zicha vujudga kelmaganidek, **tajriba** ham hyech bir harakat, qiziqish va o'rganishsiz, sinovsiz, tavakkal qilishsiz yuzaga chiqmaydi. Pedagogik faoliyatning eng zaruriy va emosiyalarga, hissiyotlarga boy bo'lishini hisobga olsak, juda og'ir muammolar, dars jarayonlaridagi kutilmagan holatlar, endi o'rganayotgan tarbiyachining faoliyati ham o'z fanining mohir ustasi bo'lgan tarbiyachiga **tajribasini** tinimsiz oshirib borishiga imkon yaratadi.

Tajribali pedagoglar doimo o'zlarida nimanidir, qandaydir qobiliyatini namoyon qilayotgan yoki rivojlantirayotgan bo'ladilar.

Pedagogik tajriba maxsus tashkil etilgan eksperiment asosida ham bo'lishi mumkin. Ijodkor pedagog erishgan natijalari tajribalari tahliliida metodologik tamloyil alohida o'r'in tutadi.


Pedagogik tajribaning yangiligi, dotzarbliji, ilmiy amaliy ahamiyati asoslanadi, oldingi an'ana, tizimga qiyoslanadi. Ilg'or pedagogik tajribaning asosiy ko'rsatkichi innovasion natijasidir. Masa-lan, tarbiyalanuvchilarning bilim darajasi, mustaqil o'zlashtirishi, olingan bilimlarni erkin qo'llay olishi, tarbiyalanganlik darajasi, bilish motivi, ezgu maqsadi shakllanganligi.

### 3.3. Ilg'or tarbiyachi-ijro tajribasi tavsifining shakllari: tezislar, maqolalar, pedagogik jurnallar.

**Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallar to'plash** Pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy tavsifga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va

xarakteri bilan aniqlanadi. Pedagogik ijodkorlik majmui – pedagogik tajribadir.

Ilg'or pedagogik tajriba deganda tarbiyachining o'z pedagogic vazifasiga ijodiy yondashishi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yangi shakl, metod va vositalarini izlab topishdir. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogichodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatlari o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi turdag'i o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Pedagogik tajriba tarbiyachining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari yig'indisidir. Pedagogik tajribani to'plash pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u pedagogic faoliyatni samarali tashkil etish omili hisoblanadi.



Dastlab adabiyotlar ro'yxati tuziladi, asosiy nazariy manbaalar aniqlanadi. Adabiyotlarni o'rganish bo'yicha konspekt, tezis, annotatsiya tuziladi. Maqsadga muvofiq sitatalar yozib olinadi. Sitatalar olganda adabiyotlarning aynan muallifning nomi, nashriyoti, necha sahifaligi va qaysi bobdan olingani ko'rsatiladi. Agar internetdan olingen bo'lsa, manbai va uning sayti aniqlanadi. Demak, adabiyotlar va arxiv xujjalaring manbalarini maqsadli o'rganish ilmiy pedagogik tadqiqotning samaradorlik shartidir.

Konspektlar tuzish — materiallarni o'rganishningyagona usulidir. Ammo katta ahamiyatga ega bo'lgan konspekt turlari ham mavjud. Bu kitob materialining haqiqiy konspektidir. Ular tadqiqotchiga sitatalardan ko'ra ko'proq foyda beradi.

Konspektlashtirishning asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

Tezis - muallif tomonidan isbotlanadigan yoki inkor etiladigan asosiy fikrlar, g'oya va qonunla'ling majmuidir. Qoidalar ichida haqiqiy materiallar bo'lishi shart emas, lekin har bir qoidadan so'ng varoqning pastki chet qismida kitobda keltirilayotgan omitlarning qisqa ro'yxati bo'lishi zarur.

Ilg'or padagogik tajribani ilmiy tahlil etishda vaqt teja'lkorligi, tajribaning iqtisodiy afzalligi alohida o'r'in tutadi. Ma'lumki, pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish kam mehnat qilib yuqori natija olishdir. Ug'or pedagogik tajribala'li o'rganish ijodkor tarbiyachila'li kashf qilish ta'lim-tarbiya nazariyasini va ahamiyatini boyitadi.

Ilmiy tadqiqotchi ijodkor tarbiyachi bilan yangi tajribala'li yaratishi mumkin, birga izlanish ishlarini tashkil etishi, tajriba yakka va ja'loa tarzida bo'lishi mumkin. Ja'loaningning ilg'or tajribalari maqsadli, kompleks, rejali bo'lishi mumkin. Keyingi yillarda ta'lim muassasalarida metodik kengashlar, birlashmalar ilg'or tajribala'li umumlash- tirish markazlariga aylangan. Ilmiy seminarlarda ilg'or tajribalar natijasi, innovasion loyihalar ilmiy amaliy bahosini, tavsiyasini olmoqda.

Pedagogik tajribani to'plash tizimi quyidagi tarkibiy qismlaridan tashkil topadi:

## Maqsadni belgilash

Ma'lumotlarni to'plash	Ma'lumotlarni tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish	Yutuqlarni aniqlash va amaliy faoliyatga tatbiq etish
------------------------	---	---

Ilg'or pedagogika tajribalarni o'rganish metodi ilmiy tadqiqot muammosidan kelib chiqib har xil usullarda qo'llaniladi. Ta'lim-tarbiya amaliyotiga doir dolzarb tadqiqot, muammonisini tanlashda ilg'or pedagogik tajribalarga asoslaniladi, ilmiy farazlar ham ilg'or pedagogik tajribalar asosida shakllanadi. Ilg'or pedagogik tajribala'li o'rganish natijasida nazariy va amaliy tavsiyalar yaratiladi.

Pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy tavsifga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan aniqlanadi. Pedagogik ijodkorlik majmui - pedagogik tajribadir.

Ilg'or pedagogik tajriba deganda tarbiyachining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yangi shakl, metod va vositalarini izlab topishdir.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniylatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi turdag'i o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Pedagogik tajriba tarbiyachining o'quv ishlari jarayonida egalaydigan bilim, ko'nikma va malakalari yig'indisidir. Pedagogik tajribani to'plash pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismrlari dan biri bo'lib, u pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish omili hisoblanadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Ilg'or pedagogik tajribatushunchasiga ta'rif berihg.
2. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishningnechta bosqichlari mavjud.
3. Pedagogik ijodkorlik manbainimadan iborat.
4. Ilg'or pedagogik tajribani o'ganishdaqanday materiallar to'planadi.
5. Konspektlar tuzish qanday amalg'a oshriladi?
6. Ilg'or pedagogik tajriba deganda nimani tushunasiz.
7. Tezis - nima.Qanday yoziladi?
8. Ilg'or pedagogika tajribalarni o'rganish metodi nima?
9. Pedagogik tajribani to'plash tizimi qanday i tarkibiy qismrlardan tashkil topadi?
10. Ilg'or pedagogik tajribani o'ganish qanday natija beradi?

#### IV BOB.

### INNOVATSION JARAYONLARNI NAZORAT QILISH VA TARTIBGA SOLISH ETISH

#### 4.1. Yangilikning maqsadi, ishtirok etishning mohiyati, bashorat natijalar, dastur sohasi bo'yicha innovatsiyalari tasnifi.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rincutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.


Xususiy yangilik V.A. Slastenining aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret obyektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi. Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlami kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda tarbiyachi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- Talabaning dars davomida befarqi bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- Talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- Talaba talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.Tadqiqotchilar (AL. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar.




Yangilikning individual mikrosathi

Alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinci yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konseptiyasini farqlaydilar. Bu konseptsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi.

U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:



#### 4.2. Innovator-pedagog, innovatsiyalarni baholash, rivojlanish va amalga oshirishdagi fikrlar.

M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi; sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathjari;

sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari; -

mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;

bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - etuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz — irradiasiya(aldanish) — zamonaviylashtirish;

boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalantrish - tashkil etish - rahbarlik qilish -

nazorat qilish; - tashkiliy tuzilma diagnostik, oldindan ega bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi. Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining uchtaasosiy qonuniyat farqlanadi:


Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va himmatini keng yoyadi. Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipgatushirish va amaliy harakatga o'tish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklaming amalga oshish yo'lliga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi. Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilarini innovatsiya jarayonining ikki tipini farqilaydilar:



Oliy maktabdagи innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilin-gan.

Oliy mакtab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limgagi yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko'psub'ektili (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
- individual - ijodiy (tarbiyachi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

#### **4.3. Rejali natijani nazorat qilish. Innovatsiya natijalarini nazorat qilish.**

XX asr oxirida sanoati va intellektual rivojlangan mamlakatlar o'rta-sidagi iqtisodiy musobaqa fan, texnika, texnologiyalar va buning oqibati o'laroq, ta'lim sohasiga ko'chdi, chunki raqobatga bardosh beradigan kadrlarni tayyorlamay turib, raqobatlashuvga qodir iqtisodiyot ham bo'lmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda mutaxassislar tayyorlashda shaxs va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy hamda madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi kasb-hunar ta'limi dasturlari rang-barang bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu rang-baranglik kasb-hunar ta'limi

moslashuvchan bo'lishiga olib keladi va o'zgarib borayotgan sharoitga tez moslashishni ta'minlaydi.

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Angliya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda mutaxassis tayyorlash tajribasi ta'limning eng muhim vazifasi intellektni va mantiqiy fikrlashni mashq qildirishdan iboratligini ko'rsatmoqda. Bu masalani hal etishda o'quvchilarning mustaqil ishlashining roli muhim bo'lib, u mutaxassis o'zining kasbiy, ma'naviy va madaniy saviyasini butun umri davomida takomillashtirib borishi uchun juda zarur bo'lgan mustaqil bilim olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Yangilik kiritishning mohiyatini innovatsion faoliyat, ya'ni yangi natijalarga, ularni olish vositalari va usullariga erishish, an'anaviy faoliyatning eskirgan tarkibiy qismlarini bartaraf etish bo'yicha faoliyat tashkil etadi.

Olim innovatsion faoliyatning radikal va takomillashtiriluvchi turlari o'rta-sidagi ziddiyatli xususiyatiga e'tiborni qaratadi. Takomillashtirish mavjud tashkiliy tuzilmalarga zid emasligi va ularga maqbul moslashishi amaliyotdan ma'lum. Tub yangiliklar esa ularni parchalaydi, shuning uchun keskin qarshilikka uchraydi. Ta'lim sifatini boshqarish jarayonitash-kilotchilar innovatsiyalarning bunday muhim xususiyatini doimo e'tiborda tutishlari kerak.

Yangilik kiritish jarayonining muhim xususiyatini ta'kidlab o'tamiz — innovatsiya ushbu ta'lim muassasasi dolzarb vazifalarni samarali hal qilishga ko'maklashishi kerak. Afsuski, aksariyat ta'lim xodimlari amalda bunga yetarli e'tibor bermaydilar, natijada yangiliklarning o'zlashtirilishi rasmiyatchilikka aylanadi. M. M. Potashnik innovatsiyalarning boshqa muhim xususiyati — yangiliklar ta'lim muassasasini rivojlantirish vazifasini hal qilish imkonini berishi deb hisoblaydi. Boshqacha aytganda, innovatsiyalar «moda» uchun va «qizg'in» tadqiqotchilik faoliyati olib borilayotganini ko'rsatish uchun emas, balki o'quvchilar foydasini ko'zlab kiritiladi.

Boshqaruв xodimlari va pedagoglar muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lgandagina yangiliklarni samarali o'zlashtirish mumkinligini anglab yetishlari juda muhim. Bunga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

ta'lim jarayoni qatnashchilarining faol ishchanligi bosqichma-bosqich shakllantirilishiga riox etish;

ta'lim jarayonining barcha qatnashchilari tomonidan o'zlashtirish maqsadlarining chuqur anglab yetilishi va qabul qilinishi hamda kelgusi faoliyat vazifalari aniq tushunib olinishi;

bunda ushbu vazifalarning shaxsiy maqsadlarga zid bo'lgan qismining har doim yuzaga keladigan qarshilik ko'rsatish omilini hisobga olish;

fikr almashish aniq va xolis axborot ayrboshlash;  
amaliy qarorlarni jamoa bo'lib ishlab chiqish va qabul qilish.

Yangiliklarni o'zlashtirish jarayoni rahbariyat tomonidan majburlash chorasi bilan emas, balki xodimlarga harakat qilishda mustaqil va erkin ish olib borish imkoniyatini berish bilan kechadi. Pedagoglar jamoasining ishiga aniqlik olib kirish imkonini beradigan ko'rsatkichlar va mezonlarning ob'ektiv ro'yxatini oldindan ishlab chiqish, ularga bebaho yordam berishi mumkin. 62 Pedagogik tadqiqotlarda innovatsiyalar yangiligini aniqlashga katta e'tibor beriladi.

Kiritilayotgan yangiliklar alomatlarining variantlaridan birini keltiramiz P. Shadroviskiy:

boshqacha ko'rinishda ma'lum bo'lgan tuzilish (birinchi daraja);

ma'lum narsani uncha muhim bo'lмаган o'zgarishlar bilan takrorlash (ikkinci daraja);

ma'lum narsani aniqlash, konkretlashtirish (uchinchi daraja);

ma'lum narsani muhim elementlar bilan to'ldirish (to'rtinchi daraja);

sifat jihatidan yangi ob'ektni tashkil etish (beshinchi daraja).

Ta'lim muassasasida uni tizimli tashkil etish yangiliklarni o'zlashtirishning yana bir o'ziga xos xususiyatidir.

Bunda quyidalar muhim tarkibiy qismlar hisoblanadi:

ta'lim muassasasining vazifasi, uning yangi maqsadlari va vazifalari;

boshqaruv xodimlari va pedagoglar shaxsi, ularning o'zlariga va ta'lim oluvchilarga nisbatan nuqtai nazari;

o'quvchi shaxsi;

o'quvchilar o'zlashtirayotgan bilimlar funksiyasi, tuzilmasi;

ta'lim texnologiyasi va vositalari;

tashkiliy tuzilma, pedagogik mehnat madaniyati va boshqalar

Yangilik darajasini aniqlash uchun barchaga ma'lum algoritmlardan foydalaniladi. Masalan, quyidagicha yondashuv mavjud:

1. Baholanayotgan ob'ektning muhim ko'rsatkichlari, alomatlari, mezonlari ajratib olinadi.

2. Qiyoslash uchun unga o'xshashlari, uning prototiplari tanlab olinadi.

3. Baholanayotgan obyekt tanlab olingan o'xshash obyektlar bilan qiyoslanadi va mezonlarga muvofiq yangilik o'chovi ham miqdorli, ham sifat jihatidan belgilanadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Yangilikning maqsadi, ishtirok etishning mohiyati, bashorat natijalar nimadan iborat?
2. Pedagogik hamkorlik jarayoni qandayxususiyatlarga ega?
3. Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining nechta tipi bor?
4. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon-kechishining qandayqonuniyatimavjud?
5. Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida qandayyondashuvlari amalga oshiriladi?
6. Rivojlangan mamlakatlarda mutaxassis tayyorlashning muhim vazifasi nimalardan iborat?
7. Yangilik kiritish jarayonining muhim xususiyati ni-malardanamoyon bo'ladi?
8. Yangilikning muhim tarkibiy qismlarini izohlang
9. P. Shadroviskiyning yangiliklarga oid qanday alomatlari aniqlagan?
10. Yangilik darajasini aniqlash algoritmlarini toping.

## V.BOB. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARDA INNOVATSIYALARNI ISHLAB CHIQISH VA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

### 5.1. Pedagogik tajriba. Tajriba dasturining tarkibi.

Ta'lim tajribasi - tarbiyachi tomonidan o'quv ishlari jarayonida olingen bilim, ko'nikma va ko'nikmalarning yig'indisi. Tarbiyachi pedagogik mahorati shakllanmoqda. Shu bilan birga, bu pedagogika fanining rivojlanish manbai. Maktabgacha ta'lim amaliyotida oliy ta'limga o'qitish jarayonida olingen bilimlar faqat moslashuvchan va chuqurlashadi va tarbiyachining pedagogik harakatlarini optimallashtiradi. Jarayonda o'quv faoliyati tajriba psixologik va pedagogik fanlarga tayanib, yangilanadi. U pedagogik mahoratni rivojlanirish va boshqa odamlarning tajribasini o'rganishni faollashtiradi, uni o'ziga xosligi bilan taqqoslaydi. Ilg'or pedagogik tajribaning o'ziga xos xususiyati uning yechimiga e'tibor berishdir dolzarb masalalar mакtabning o'quv jarayoni. Uning muhim ko'rsatkichi barqarorlikdir. Bu shuni anglatadiki, ta'limga va ta'limga samaradorligini vaqt sinovidan o'tkazish kerak. Ilg'or pedagogik tajribaning istiqboli shuni ko'rsatadiki, u "ishlaydi" amaliyot boshqa tarbiyachilar, uni tarqatish va amalda qo'llash mumkin. Tarbiyachining xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng yaxshi amaliyotlar innovatsion yoki namunali bo'lishi mumkin. Innovatsion pedagogik tajriba o'ziga xoslik, yangilik bilan ajralib turadi. Innovatsion tarbiyachining tajribasi tajriba deb ataladi va tadqiqot deb ataladi. Agar biz o'qitish va o'qitishning shakkulari, usullari, vositalarini ulardan ijodiy foydalanish asosida takomillashtirish haqida gapiradigan bo'lsak, unda bunday tajriba ratsionalizatsiya hisoblanadi. Namunaviy pedagogik tajriba - bu pedagogika fanining yutuqlaridan, olimlar, metodistlarning metodik tavsiyalaridan, boshqa tarbiyachilarning tajribasidan mohirona foydalanadigan tarbiyachining ongli faoliyati va shu asosda uning tarbiyaviy ishi boshqalar uchun namuna. Maktab ijodiy ishlaydigan tarbiyachilarni izlashni rag'batlantirishi kerak.

### 5.2. Ilg'or pedagogikani o'rganish, sintez qilish va tarqatish

Ilg'or pedagogik tajriba maktab ichidagi nazorat jarayonida pedagogik o'qishlar, konferentsiyalar va boshqalarda qayd etiladi.

U ommaviy amaliyotning mulkiga aylanishi uchun uni quyidagi ish bosqichlarini nazarda tutgan holda o'rganish va umumlashtirish kerak:

a) pedagogik muammoni va o'rganish ob'ektini aniqlash. Ushbu bosqichda tajriba mavzusini shakllantirish, uning dolzarbligini asoslash, uni o'rganish uchun guruh tuzish,

b) tajribani oldindan o'rganish. Ushbu bosqich tajriba ob'ekti bilan oldindan tanishishni o'z ichiga oladi, mashg'ulotlarda qatnashish, tarbiyachilar bilan suhbatlar va mакtab hujjatlarini o'rganish. Shu asosda g'oyalalar aniqlanadi. mukammallik, uni o'rganish usullarini aniqlang,

c) nazariy tayyorgarlik. Eng yaxshi amaliyotlarni o'rganadijan odamlar ushbu muammo bo'yicha mavjud nazariy va uslubiy qoidalarni bilishlari kerak, bu esa tajribaning yangilik darajasini aniqlaydi. pedagogik sharoitlaruning samaradorligini ta'minlash

d) tajribani o'rganish. Ushbu bosqichda empirik materiallar to'planadi, o'quv jarayonining individual aloqalari o'rganiladi va nazorat imtihonlari (bo'limlar) tashkil etiladi.

To'plangan materiallar odatiy va tasodifiy deb tasniflanadi, chunki u tizimlashtirilgan va umumlashtirilgan. Ushbu ish argumentatsiya va dastlabki nazariy pozitsiyalarni nazariy tayyorlash bosqichida shakllantirilgan empirik materiallar bilan mustahkamashdan iborat. Tajribani tizimlashtirish va umumlashtirish jarayonida aynan ushbu qoidalarni uning asosiy g'oyalalarini aniqlash, o'rganilayotgan muammoni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqish va tajriba istiqbollarini baholash uchun asos bo'ladi.

Eng yaxshi tajribalarni tarjima qilish shakkulari va usullari: ochiq darslar va boshqa tadbirlar; o'rganilgan natijalarni og'zaki ravishda etkazish, tarbiyachilarning mакtabda, xalq ta'limi vakilfarining yig'ilishlarida, kurslarida, seminarlarida chiqishlarida ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish; o'rganilgan natijalar to'g'risida yozma hisobotlarni tayyorlash, ilg'or pedagogik

tajribalarni metodik xatlar, metodik ishlanmalar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, risolalar, monografiyalar, anjuman va seminarlarning materiallari to'plamlari ko'rinishida umumlashtirish; ilg'or pedagogik tajribani namoyishkorona ommalashtirish - ko'rgazmalar, metodikada maxsus stendlarni tashkil etish va boshqalar. Ilg'or pedagogik tajribanining samaradorligi pedagogika fani va maktabgacha ta'limaliyotining organik o'zaro ta'sirini ta'minlaydi, tarbiyachilarni o'qitish va tarbiyalashning yangi usullarini izlashda baxtsiz hodisalar va xatolar haqida ogohlantiradi. Innovatsion tarbiyachilar tajribasida ularning pedagogik faoliyatini ajratib turadigan va o'ziga xosligini ochib beradigan individual xususiyatlar aniq kuzatiladi. Ularning ishlarida juda ko'p va umumiy belgilari. Asosan, ular hamkorlik pedagogikasining quyidagi g'oyalariiga ega:

tarbiyaviy maqsadga ega bo'lgan jamoada xilma-xil munosabatlarni qo'llash; ishning shakllari va usullarini bolalar o'zaro munosabatda bo'ladigan tarzda o'ylash;

talabalarga o'z faoliyati va munosabatlarini tahlil qilish qobiliyatini singdirish; tarbiyachilar va talabalarning o'quv jarayonida, majburlashsiz o'qitishdagi birligi;

o'quvchiga optimistik qarash, uning talabada ob'ektiv o'zini o'zi anglash qobiliyatini va atrofdagi voqelikni idrok etish qobiliyati.

### Savol va topshiriqlar

1. Pedagogik mahoratni rivojlantirish va boshqa odamlarning tajribasini o'rganishni faollashtiradigan jarayonni aniqlang.

2. Ilg'or pedagogik tajribanining o'ziga xos xususiyati nimada?

3. Tajribani tizimlashtirish va umumlashtirish qandayamalga oshiriladi?

4. Ilg'or pedagogik tajribani namoyishkorona ommalashtirish degandanmani tushunasiz?

5. Hamkorlik pedagogikasining g'oyalari qaysilar.

6. Eng yaxshi tajribalarni tarjima qilish shakllari va usullari qaysilar?

7. Ochiq darslar va boshqa tadbirlar, o'rganilgan natijalarni og'zaki ravishda etkazish, seminarlar qanday natija beradi?

8. Ilg'or pedagogik tajribanining samaradorligi nimalarga bo'g'liq?

## VI. BOB.

### INTERFAOL METODLAR VA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARTUSHUNCHASI

#### 6.1. Interfaol metodlar va ularning tasnifi.

Interfaol metod-ta'lism jarayonida o'quvchilar hamda tarbiyachi o'rtasidagi faoliytni oshirish orqalio'quvchilarning bilimlarnio'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlari yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ularta'lum-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatgaega.

#### Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan tarbiyachilari dars mashg'ylotlari jarayonida interfaol usullardai borgan sari kengroq foydalanmoqlar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, taxlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayonqilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib ularning hammasiham hap qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, tarbiyachidai mashg'ylot oldidai katta tayyorgarlik ko'rishini talab qiladi.

Shu mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroqidrok etish mumkin.

#### An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

No	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1.	Qo'llanish darajasi	Barcha mavzular bo'yicha ular uchunqulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi.	Ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi. Boshqa mavzular uchun an'anaviy dars qo'llaniladi
2.	Dars maqsadi	Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, mala-kalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayoni qilish, himoyalashga o'rgatish.
3.	Tarbiyachi ning vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	Tinglovchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkilqilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarini asoslab berish.
4.	Darsga tayyorgarlik-ka talablar	Dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash.	Interfaol dars ishlansasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlash.
5.	Tinglovchilari tayyorgarligiga talablar	Oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish.	Yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish.

6.	Tinglovchi larning vazifalarini va ishlash usullari	Tarbiyachini tингловчилашни ва о'злаштириш, berilgan topshiriqlarni bajarish.	Tarbiyachi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikrlash, o'z xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuниy xulosaga kelish
7.	Vaqt taqsimoti	Dars vaqtining ko'p qismi tarbiyachining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishga sarflanadi.	Dars vaqtining ko'p qismi tinglovchilarining mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
8.	Darsning modul va algoritmlari	Darsning modul va algoritmlardan har bir tarbiyachi o'zi qo'llayotgan metoda ga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
9.	Ishtirokchi lardan talab qilingan faollik darajasi	Tarbiyachi har tomonlama faol, tinglovchilar diqqatini jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol. Muloqot shakllari: tarbiyachi-guruh; tarbiyachi-tinglovchi;	Tarbiyachi ham, tinglovchilarham tomonlama faol. hamkorlik, hamijodkorlik shakllari: tarbiyachi-tinglovchi; tinglovchi-tinglovchi; tinglovchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; tin-

		tinglovchi-tinglovchi; tinglovchi-tarbiyachi; guruh-tarbiyachi; guruh-tarbiyachi;	glovchi-tarbiyachi; kichik guruh-tarbiyachi; guruh-tarbiyachi.
10.	Bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari	Muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, muloha-zza, tahlil, mushohada, mutolaa va boshqalar.	Muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, muloha-zza, tahlil va boshqalar.
11.	Mashg'ulot shakllari	Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, davra suhbat, bahs, munozara, konsultatsiya va boshqalar.	Ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar va boshqalar.
12.	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishlari.	Mavzu bo'yicha tinglovchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rnatish.

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun tinglovchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy

tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda tinglovchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

## **6.2.Pedagog va tarbiyachilarini interfaol usullar asosida ishlashga tayyorlash**

O'zbekistonda qadim zamonlardan beri ta'lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o'rtaсидиги muloqotlarda myhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo'llab kelingan.

Bu usullar talabalarning nytq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo'lib yetishishlariga xizmatqilgan.

Hozir interfaol mashg'yotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamma texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli - hap bir tarbiyachi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda hap bir tinglovchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi - hap bir tarbiyachi barcha tinglovchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'yot olib borishni ta'minlaydi. Bunda hap bir tinglovchi o'z motivlari va intellektual darjasiga ega holda mashg'yotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'yotlarni qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'yotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy - pedagogik, ilmiy - metodik hamda tarbiyachiga, tinglovchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobjiy yoki salbij ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

## **Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:**

- tarbiyachilardan interfaol mashg'uotlar olib boruvchi trenerlar gypuhini tayyorlash;
  - tarbiyachilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
  - o'quv xonasida interfaol mashg'yot uchun zarur sharoitlarni yaratish;
  - ma'ruzachining hamda tinglovchilarning ish joyi qulay bqlishini ta'minlash;
  - sanitariya - gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;
  - xavfsizlik qoidalariга rioya qilishni ta'minlash;
  - davomatni va intizomni saqlash;
  - nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.
- Ilmiy - metodik omillarga quyidagilar kiradi:
- DTS va Davlat talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqcadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqcadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;
  - interfaol mashg'yot ishlanmasini sifatli tayyorlash;
  - interfaol mashg'yotning hap bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;
  - mashg'yotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy - nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;
  - zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;
  - tinglovchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'yotlarni o'tkazish;
  - interfaol mashg'yot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

## **Ma'ruzachiga tegishli omillar:**

- mavzuni sayoz bilishi;
- nytqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarning ma'nosini tushuntirmsandanqo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;
- o'zini tutishi va pedagogik xulqidagi nyqsonlar;
- kiyinishi va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;
- ta'lim vositalaridan unumli va to'g'ri foydalana olmasligi;

- kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi yetishmasligi;
- tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;
- tinglovchiga xayrixohlik, samimiylik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;
- mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.

### **6.3.Pedagogik texnologiya turlari. Pedagogik texnologiya tushunchasining kelib chiqishi.**

Hozirgi ta'limgartarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo'naliishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan iborat. Ma'lumki, ta'limgartarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Insoniyat hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha aytganda insonning har bir harakati axborot olish yoki uzatish yoki undan foydalanish yoki uni o'rganish, o'zlashtirish, saqlash va boyitishdan iborat. Shundan hozirgi insoniyat sivilizatsiyasini axborot sivilizatsiyasi deb ataladi.

Shu nuqtai nazardan sivilizatsiya tushunchasiga berilgan ta'riflardan biri quyidagicha: «Sivilizatsiya- axborotni to'plash, mavhum tahlil hilish va foydalanish hamda atrof-muhit va o'zi haqida va saqlanish reaksiyalarini yaratish uchun eng ko'p ma'lumotlarni olishga qodir bo'lgan moddaning yuqori turg'un holatidir»

Bu ta'rifdan axborotni avloddan avlodga uzatishning, ya'ni ta'limgartarbiya ishining ahamiyati qanchalik yuqori ekanligi ko'rinish turibdi. Ya'ni, ta'limgartarbiya sivilizatsiyaning mavjudlik sharti hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan «sivilizatsiyaning bosh belgisi axborotni to'plash, mavhum (abstrakt) tahlil qilish (jonivarlar bunga qodir emas) va uni o'z turini, o'z jamoasini uzoq saqlash uchun foydalanishdan iborat.» Bundan axborotni to'plash, tahlil qilish va undan foydalanish shakl, usul va vositalarni takomillashtirib borish zarurligi va bunday texnologiyaning zamirida pedagogik texnologiya yotishi tushuniladi.

Axborotlarning inson hayotidagi hal qiluvchi ahamiyatini aniqlashga qiziqish ortishi tabiiy. Bu haqdagi ta'riflardan biri quyidagicha: «Axborot-bu sezgi a'zolarimizni tashqi olamga moslashtirishmiz jarayonida biz undan oladigan mazmunning belgisi» (N.Viner). Bu ta'rif tirik organizmning tashqi muhitdan axborotni idrok qilishiga doir xususiy holga tegishli.

Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rifini quyidagicha deb hisoblashimiz mumkin.

Pedagogik texnologiya- barkamol insonni shakllantirish faoliyat.

Shu bilan birga pedagogik texnologiyaning keng ko'lamlisi, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana birnechta ta'riflarinitaklif qilishimiz mumkin:

Pedagogik texnologiya axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni ochish hamda axborotlarning oralaridagi yangi bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya-ta'limgartmetodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliyusubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya-bu o'z oldiga ta'limgartshakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayoninitexnikaviy va odamlar resuslarini va ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.

Pedagogik texnologiya-ma'lumotlarni o'zlashtirishni ta'minlash uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya- insonga (ta'limgartarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya jarayonida tarbiyachi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi.

Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bu faoliyat boshqa hamma faoliyatlarga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lib, avvalo jarayon ko'rinishida amalga oshiriladi vashu ko'rinishda mavjud bo'ladi. Shu bilan birgabu jarayon o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lib, bu qonuniyatlarni insoniyat tomonidan o'rganish davom etmoqda.

Pedagogik texnologiyaninghar turlita'riflari mavjud bo'lib, har bir ta'rif ma'lum nuqtai-nazardan yondashishni ifodalaydi. Ayrim asosiy ta'riflar va ularning sharhlarini ko'rib chiqamiz:

Texnologiya-biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi (Izohlilug'at).

Texnologiya-ishlov berish, ahvolni o'zgartirish sa'nati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi. (V. M. Shepel).

Pedagogik texnologiya-o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, y o' llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)nibelgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy instrumentlaridan iborat (B.T. Lixachev).

Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonining amalga oshirish mazmunidan iborat texnikasi (V.P. Bespalko).

Pedagogik texnologiya-ta'limning rejalashtiriladigan natijalari ga erishish jarayonitafsiloti (I. P. Volkov).

Ta'lim texnologiyasi-didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi (M. Choshanov).

Pedagogik texnologiya- o'quv jarayonini o'quvchilar va tarbiyachi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyi halash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli (V. M. Monakov).

Pedagogik texnologiya-texnika va odam resuslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimalashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamda jarayonilarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi (YuNESKO).

Pedagogik texnologiya-pedagogikmaqsadlarga erishish uchun foydalilaniladigan hamma shaxsiy, instrumentli va metodologik vositalarning tizimli yig'indisini va amal qilish tartibini bildiradi. (M.V.Klarin).

Pedagogik texnologiya-turli mualliflar (manbalar)ning hamma ta'riflari ma'nolarini o'zida mujassam etuvchi mazmundagi umumlashtirishdan iborat (G. K. Selevko).

Pedagogik texnologiya bu-so'zsiz rioxay qilish eng yuqori natijani kafolatlaydigan retseptlar emas, bu-qonuniyatlar bo'lib, ularning amaliy ahamiyatidaniborat (V. Yu. Pityukov).

Pedagogik texnologiya-bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir (Sakamoto).

Pedagogik texnologiya tushunchasi XX asrda paydo bo'lib, quyidagi rivojlanish bosqichlaridan o'tibkelmoqda.

Dastlab bu tushuncha 1940 yillardan 50-yillar o'rtasigacha «ta'limda texnologiya» deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishniifoda qilgan.

#### **6.4.Pedagogik texnologiyaning tarixi va mezonlari.Ayrim asosiy ta'riflar va ularning sharhlari.**

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'talarida AQShda qo'llana boshlagan. Bunda «pedagogik texnologiya» va «ta'lim texnologiyasi» ifodalarini faqat **texnika vositalari yordamida** o'qitishga nisbatan qo'llangan edi. Oradan vaqt o'tishi davomida shu ifodalarni qo'llash darajasi kengayib borishi natijasida ularningma'nolari ham tegishlicha o'zgarib bordi. Hozirgakelib esa pedagogik texnologiya ifodasining zamanoviy ilmiy asoslangan yagona ta'rifi belgilash maqsadidabir qancha yirik olimlar tomonidanturli fikrlar va xulosalar asoslab berildi.

50-yillar o'rtasidan 60-yillargacha «ta'lim texnologiyasi» ifodasi qo'llanilib, bunda **programmalashtirilganta'limni** nazarda tutilgan.

70-yillarda «pedagogik texnologiya» ifodasi qo'llanilib, u avvaldan **loyihalashtirilgan va aniq belgilangan** maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan.

1979 yilda AQShning Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan edi: «Pedagogiktexnologiya bilimlarni o'zlashtirishninghamma jihatlarini qamrab oluvchi muammoni tahlil qilish va rejalashtirish, ta'minlash, muammoning yechimini baholash va boshqarishchun odamlar, g'oyalar, vositalar va faoliyatni tashkil qilish usullarini o'z tarkibiga oladigan **kompleks, integrativ jarayondan iborat...**»

80-yillarning boshidan pedagogik texnologiya deb ta'limning **kompyuterli va axborot texnologiyalarini** yaratishga aytilgan.

Shu aytilanlar asosida pedagogik texnologiya bir jihatdan o'quv jarayonida texnika vostalaridan foydalanishning kengayib borishini ifodalab, uni ta'limdagi, o'qitishdagi texnologiya deb nomlash mumkin bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim texnologiyasi yoki pedagogik texnologiyadegan nomo'quv jarayonining o'zini qurish texnologiyasini bildiradi deb xulosa chiqarish mumkin.

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishish va uni tatbiq etishni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini ilgaridan loyihalashtirishda namoyon bo'ladi. (U. Nishonaliyev).

Pedagogik texnologiya-bu tarbiyachi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir (N.Saydahmedov).

Pedagogik texnologiya-bujamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan tarbiyachi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamidatahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir (B.J. Ziyomuhamedov).

Pedagogik texnologiya bu-ob'ektiv, avvalo moddiy jarayon. Agar biz o'quv-tarbiya jarayonidan uning ob'ektiv, moddiy (substansiyalik) jihatini ajrata olsak, shunda biz texnologiyaga, eng kamida uning tafsilotiga ega bo'lamiz ( V. K. D'yachenko).

Pedagogik texnologiya-bu o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha (innovatsion) yondoshuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislikta fakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiyongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B. L. Farberman).

### **Pedagogik texnologiyaning mezonlari**

Ta'lim shakllari, usullari, uslubiy tizimlari xususiy metodikalar ko'rinishda hosil bo'lgan bo'lib, ular takomillaшиб borishi jarayonida texnologiyaga o'sib o'tadi.

Texnologiya universal xususiyatga ega bo'lib, uni har bir mutaxassis tomonidan amalga oshirish, bir xil darajada bajarish va ko'zda tutilgan maqsadga erishish mumkin. Uning metodikadan asosiy farqi shundaki, metodika o'qitish usullari va yo'llarining ma'lum shaxs uchun qulay bo'lgan majmuasidan iborat. Metodika tarbiyachining bilim, ko'nikmalari, mahorati, shaxsiy sifatlari, temperamentiga bog'liq. Buni programmalashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan V.F. Shatalovning tayanch signallar konspektlari vositasidagi jadal (intensiv) o'qitish metodikasi orasidagi farqni solishtirishda ko'rish mumkin.

Shu asosda texnologiyalarning asosiy mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Ma'lum ilmiy asosga, konsepsiya tayanish.
  - 2.Tizimlilik, o'quv-tarbiya jarayoni va uning qismlarining o'zaro mantiqiy bog'lig'ligi.
  - 3.Samaradorligi, ta'lim standartlariga erishishni kafolatlashi, sarflash talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning me'yor daramasida ekanligi.
  - 4.Boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi.
- Ta'limning kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonini yaratish yo'lidagi dastlabki qadam 60-yillarda yaratilgan programmalashtirilgan ta'lim bo'lgan edi. Bunda o'quvchi to'liq o'zlashtirguncha bajarishi lozim bo'lgan barcha vazifalar aniq ketma-ketlikda batafsil ishlab chiqilgan dastur tuziladi. Bu dastur ta'lim maqsadida ko'zda tutilgan sifatdagi bilim va ko'nikmalarni har bir o'quvchi o'zlashtirishini kafolatlashi lozim. O'zlashtirish jarayonining borishi haqida tarbiyachi bilan birga o'quching o'ziga ham axborot yetib turadi. O'quvchi mantiqiy bog'langan qisqa vazi-

falarni ma'lum ketma-ketlikda bajarish orqali deyarli xatolarsiz asosiy maqsadga yetib bora oladi.

Bunday texnologiya o'quv jarayonini to'liq nazorat qilish imkoniyatini hosil qiladi. Bunda mantiqiy bog'langan qisqa vazifalar ketma-ketligi ta'limgarayonining algoritmini hosil qiladi. O'quvchi va tarbiyachi faoliyatining shunday algoritm asosida tashkil qilinishi ko'zda tutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydi. Ta'limgarayonining shunday tartibda tashkil qilinishini hozirda to'liq ma'noda pedagogik texnologiya deb atash mumkin.

Pedagogik texnologiya ta'limgaraychilar va tarbiyalanuvchilariga pedagoglar tomonidan kasbiy pedagogik maqsadlarni amalga oshiruvchi ta'sir ko'rsatilishini tashkil qilish tizimini belgilaydi.

Pedagogik texnologiya pedagogik faoliyatni aniq maqsadlar asosida tashkil qilish hamda uning texnologikligini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Pedagogik texnologiya tizimi pedagogik maqsadlarning aniq amalga oshirilishinata'minlaydi.

Texnologik tizimning asosiy belgisi kutilgan natijaga erishishni kafolatlash bilan ajraladi. Buning uchun asosiy maqsadga erishishning har bir bosqichida bajarilishi lozim vazifalar, buning uchun talab qilinadigan vositalar hamda metodlar aniq modullar yoki algoritmlar hosil qiladi.

Notexnologik tizim (xususiy metodikalar)da esa kutilgan natijaga erishish kafolatlanmaydi.

Pedagogik texnologiya ratsional asosdagi ilmiy mezonlarga asoslangani holda uning yanada rivojlanishida intuitiv (empirik) bilimlar ham ahamiyatga ega. Shu ma'noda texnologiyani ma'lum ma'noda san'atgaqiyos qilinadi. Chunki sa'nat ituitsiyaga asoslangan, texnologiya esafanga asoslanadi. Lekin juda ko'p faoliyat sohalari dastlab san'atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi. So'ngra hammasi boshidan boshlanadi. Pedagogik texnologiyaning rivojlanish jarayonlarida ham ushbu holatlarni kuzatish mumkin. Fanga muvofiq qurilgan pedagogik amaliyot pedagogik texnologiyadir.

O'quvchilar va ta'limgaraychilar o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarda avvaldan belgilangan sifatlarning shakllanishiga olib keladigan izchil amaliy faoliyatlarini pedagogik texnologiya deb hisoblash mumkin.

Pedagogik texnologiya (yoki ta'limgaraychilar o'quv-tarbiya) bor-yo'g'i va eng asosan ta'limgaraychilar o'quv-tarbiya jarayonida qanday faoliyatni va qanday darajada amalga oshirishidan iborat. O'quvchining o'rganilayotgan materialni (mazmunni) sifatli o'zlashtirishini ta'minlovchi izchil amaliy faoliyati ta'limgaraychilar o'quvchilari uchun amaliy faoliyati bo'lishi mumkin.

### **6.5.Texnologiya va metodikaning farqi**

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya haqidagi aniq tushunchalar va

tasavvurlar birmuncha kamligi natijasida uni xususiy metodikalar bilan deyarlik teng hisoblash hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo'lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi.

**Metodika** – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. Alovida metodikalarni tashkil qiladi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilalar.

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidanunumli foydalana bilish talab qilinadi. Ular orasidagi farqlar quyidagicha.

**Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi ayrim farqlar**

<b>Asosiy tushunchalar</b>	<b>Pedagogik texnologiya</b>	<b>Metodika</b>
Ta'riflar	Pedagogik texnologiya-insonga oldindan belgi-langان maqsad bo'yicha ta'limgaraychilar o'quvchilari qiluvchi fanlar.	Metodika ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarni qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi fanlar.
Maqsad	Komil insonni shakllantirish	Alovida o'quv fanlarini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlarning yuqori sifatda

		bo'lishini ta'minlash
Qo'llash miqyosi	Barcha ta'lim-tarbiya jarayonida	Xususiy fanlarni o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda
Vositalar	Barcha ta'lim-tarbiyaviy vositalar, xususiy metodikalar	Alovida o'quv fanlarini o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan vositalar
Pedagogik jarayon	Ta'limi va tarbiya texnologiyasi asosida. Ta'lim menejmenti va marketingi asosida. Ta'lim-tarbiya sohasidagi eng ilg'or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihibar asosida rivojlanib boradi. Yetarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan qo'llanganda o'zaro o'xshash natijalar olinishi ta'minlanadi.	Ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor tarbiyachilarning ilg'or tajribalari asosida rivojlanadi. Xususiy tajribalar asosida boyitib boriladi. Bir muallifning ilg'or pedagogik tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llay olmaydilar. Bundan esa natijalar har kimda har xil bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy bo'lagi hisoblanadi.
Natija kafolati	Oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolati bor.	Oldindan belgilangan maqsadga har bir tarbiyachi o'z imkoniyatlariغا muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor tarbiyachilarga yaxshi natijaga erishadilar.
Kelib chiqishi	Xususiy metodkalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan.	Ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqgan.

Ushbu farqlar haqidagi masala yuzasidan quyidagi fikrni eslash mumkin. «Aslida zamonaviy ta'lim metodlari muqaddas qiziquvchanlikni hozircha batamom bo'lib tashlamagani deyarli mo'jiza, chunki bu nozik nihol (ya'ni, qiziquvchanlik) rag'batlantirish bilan bir qatorda eng avvalo, erkinlikni talab qiladi, bo'lmasa, u shubhasiz, mahv bo'ladi»(A. Eynshteyn).

Pedagogik texnologiya esa bolaning qiziquvchanligini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o'qitish metodikalari tushunchasi bilanmos keladigan hollar xususiy (o'quv fanlari) darajasidagi pedagogik texnologiya-larga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e'tiborni nimaga qaratilishi farqlar mavjud.

Texnologiyalarda ko'proq protsessual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo'naltiruvchi tomonlari ko'proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o'zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg'unligi, ko'plab «agar,,» lar (agar tarbiyachi iste'dodli bo'lsa, agar bolalar qobiliyatli bo'lsa, yaxshi ota-onalar bo'lsa... kabilar) yo'qligi bilan farq qiladi.

### Savol va topshiriqlar

1. Interfaol metodnimani anglatadi?
2. Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillarini aniqlang.
3. An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi farqlarniayting.
4. Interfaol ta'lim texnologiyasiga ta'rif bering.
5. Texnologiyalarning asosiy mezonlariqaysilar?
6. Metodikaning mohiyati nimadan iborat?
7. Pedagogik jarayontarkibi nimalarni tashkil qiladi?
8. Pedagogik texnologiyaning tarixi haqida so'zlang.
9. 70-yillarda pedagogik texnologiyaga qanday ta'rif berilgan?
10. Texnologik tizimning asosiy belgilariqaysilar?

## VII. BOB.

### PEDAGOGIK JARAYONNI SHAXSGA YO'NALTIRISH ASOSIDA TASHKIL ETISH

#### 7.1. Bolaga yo'naltirilgan ta'lim. Interfaol strategiyalar.

Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tarbiyalanuvchining shaxsiy imkoniyatlariiga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning psixologik shart-sharoitlarini nazarda tutadi. Bu ta'lim texnologiyasida har bir bolani tushunish, hurmat qilish, unga ishonish, hamkorlikda ishlash kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Mustaqil fikrlashga o'rgatish zarurati, qolaversa mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko'zlab, xalq ruhiga singib qolgan mute'lik, jur'atsizlik, tobeklik, o'z fikrini yakdil bayon eta olmaslik kabi illatlarni tugatish, shuningdek serandishalik, noo'rin sabr-toqatlilik kabi fazilatlarni ongidan chiqarishzamoniyy ta'lim talablaridan sanaladi. Bu shaxsni muayyan andoza asosida «o'zgartirish» va tazyiq o'tkazishni emas, «u qanday bo'lsa, shunday qabul qilish»ni taqozo etadi. SHaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayoni sub'ektining shaxsiy vazifalar (funktsiyalar)ni rivojlantirish qobiliyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur shart-sharoit yaratishni ko'zda tutadi.

SHaxsga oid funktsiyalar – bu shaxs tomonidan «har tomonlama barkamol shaxs bo'lish» ijtimoiy talabining ro'yobga chiqishiga xizmat qiladigan muayyan hislatlarning namoyon etilishidir.

SHaxsga yo'naltirilgan yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishning asosi sifatida shaxsning jamoa oldidagi ustuvorligini nazarda tutgan holda, unda insonparvarlik munosabatlarining shakllantirilishini taqozo etadi. Bola ana shu munosabatlar tufayli o'zini shaxs sifatida his etadi, boshqa kishilarda shaxsga xos hislatlarni ko'rishni (kattalarda va tengdoshlarda) o'rganadi. Tengdoshlar, bolalar jamoasi va pedagoglar har bir bolaning imkoniyatlarini ro'yobga chiqishining kafolati sifatida xizmat qiladi. Har bir bola imkoniyatlarining ro'yobga chiqishi esa pedagogning qadriyatlар yo'nalishlari, ya'ni uning xatti-harakatida namoyon

bo'ladijan moddiy va ma'naviy qadriyatlarga munosabati, mo'ljallar tizimi, e'tiqodi, hoxish-istiklari bilan belgilanadi.

Pedagogning qadriyatlar tizimi uning kasbiy faoliyatining yo'nalishlarini belgilab beradi. SHaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolaga o'zini shaxs sifatida anglash, ichki imkoniyatlarini aniqlash varo'yobga chiqarish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini belgilash, rivojlantirish va takomillashtirishning shaxsiyva ijtimoiy maqbul uslublarini amalga oshirishda pedagog yordaminalab etadi.

Bolaga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi

Bolaning yosh xususiyatlari

Qobiliyati  
qiziqishi  
talab-ehtiyojlari

Ta'lim  
maqsadlariga  
erishish uchun  
yordam

Maktabgacha  
ta'lim tashkilotiga  
moslashtirish

Hayotiy tajribasini  
e'tiborga oladigan  
ta'lim shakli

Ta'lim jarayoni bolaning eng optimal tarzda rivojlanishi va ta'lim olishiga doir bilimlarga asoslanishi lozim.

Ta'lim muvaffaqiyati pedagog tomonidan bolani rivojlantirish va o'qitish uslub va yo'l-yo'riqlariga oid bilimlarni qay darajada egallanganiga bog'liq.

Pedagogning asosiy vazifasibolaning rivojlanishiga ko'maklashishdir.


Maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyati – bolalikning qadrini tushunish va vaqtidan oldin ulg'ayishga undamaslik.

**Individuallashuv** yondashuv qay darajada individual bo'lsa, har bir bola shu darajada mo'ljaldagi ta'lim natijalariga erishishining ehtimoli ortadi va shu tufayli dasturning amalga oshirilishi oson

kechadi, muayyan fan bilan bog'liq muammolar kamayadi, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar oshadi.

Individuallashtirish ta'lif jarayonini bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati va talab - ehtiyojlari bilan moslashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda bolalarning bilim doirasi kengayib, o'ziga nisbatan hurmati oshadi. Ularda yanada murakkabroq masalalarni hal etishga tayyorgarlik hissi paydo bo'ladi.

Pedagog o'zgaruvchan vazifalar va faoliyatning qiziqarli turlarini rejalashtirishi, bolalarni diqqat bilan kuzatishi, zarur hollarda, material va vazifalarni almashtirishi va moslashtirishi lozim. Bolalarni kuzatish va ota-onalar bilan suhbat natijasida pedagoglar har bir bolaning kuchli va zaif jihatlari hamda qiziqishlarini o'rganadi.



Uning asosini bolaning qiziqishlari, uning kuchli va zaif jihatlari, ta'lif uslubi, yosh xususiyatlari va shaxsiy sifatlarni tiborga olish tashkil etadi.

## 7.2.Pedagogik texnologiyalarnibola shaxsiga yo'naltirilganligi.

Bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan texnologiya asosida tarbiyalanuvchi -tarbiyachihamdarbiyalanuvchi-tarbiyalanuvchihamkorligiko'zda tutilgan bo'lib,bu jarayonda ta'lif-tarbiyaijobiy natijalarga yo'naltiriladi.Shaxs ijtimoiy munosabatlar tizimining ko'p qirrali, murakkab qismidir. U bir tomonidan, ijtimoiytarixiy taraqqiyotning mahsuli bo'lsa, ikinchi tomonidan o'zi ijtimoiy taraqqiyotni ta'min etadi. Demak, ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchi insongina shaxs deb ataladi. Psixologlarning ta'bıricha, fikrlash, ya'nitafakkur-odam miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Sezgi organlari ojizlik qilgan o'rinnlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o'rganiladi. Tafakkur aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish qorlli, inson faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarining to'g'riliqi, aniqligi, haqiqiyligi hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi<sup>11</sup>.

### Pedagog quydagilarni tushunishi va esdan chiqarmasligi lozim:

1. Bolalar qanday bo'lsa, shunday qabul qilish.
2. Bolalarning o'z maqsadiga erishishiga yordam berish.
3. Bolalarning qanday qobiliyatga ega ekanli va o'z guruhida qanday ta'lif olayotganini bilish tarbiyachiga ta'lif jarayonini rejalashtirish va tashkil etish uchun boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi.
4. Agarda pedagog barcha bolalarga bir xil tarzda yondashadigan bo'lsa, ular muvaf-faqqiyatga erisha olmaydi.
5. Pedagog bolalar faoliyatining barcha yo'nalishlari, turli mashg'ulotlar bilan shug'ullanishini muntazam kuzatib borishi, ularning qobiliyati, qiziqishlari va talab-ehtiyojlari haqida bilishga intilishi kerak.

6. Pedagog ana shu ma'lumotlarga tayangan holda bola rivojlanishida ijobiy o'zgarishlarga erishish uchun ish faoliyatini rejalashtiradi va qo'llayotgan usullarni ta'lim jarayoniga moslashtiradi.

7. Materiallar va mashg'ulotlar bolalar biladigan va qilishni o'rgangan narsalargagina emas, balki yangi ko'nikma va tushunchalar hosil qilish uchun ulardan muayyan harakat, intilish talab qiladigan mashg'ulotlarga asoslangan ta'limgina kutilgan muvaffaqiyatni keltiradi.<sup>12</sup>

8. Ta'lim maqsadlari bolalarning ushbu yoshdagi guruhi uchun tushunarli va amalga oshirilishi mumkin bo'lishi kerak. Yangi ko'nikmalarni amaliyotda takomillashtirish uchun bolalarga keng imkoniyatlar vujudga keltirilishi zarur.

#### **Ta'lim maqsadlariga erishish uchun bolalarga beriladigan yordam**

1. Odatda bolalar yangi, masalan, zinapoyadagi zinalarni sanash va h.k. ko'nikmalarni o'z tashabbusi bilan amaliyotda mustahkamlaydi.

2. Yangi ko'nikma mukammallik darajasiga yetkazilishi bilan, ta'limni davom ettirish uchun bolalarga yangi vazifa kerak. Ammo bu vazifalar ham amalga oshirilishi mumkin bo'lishi, bola uni uddalay olishi zarur.

#### **Pedagog qabil qiladigan qarorlar**

Katta yoshdagi bolalar pedagoglari har kuni ko'plab qarorlar qabul qiladi: bolalarga qaysi kitobni o'qib berish, kichik guruhlarga nechta bolani belgilash, ularga qanday savollar berish, o'yin jarayoniga kirisha olmayotgan bolaga qanday yordam berish kerak va h.k.

Boshqa qarorlar – bu pedagog tomonidan o'qitish muhit, materiallarni joylashtirish, kichik guruhlarda ishlash uchun bolalarni guruhlarga ajratishga doir qarorlardir.

Har bir vaziyatda qabul qilinayotgan qaror jiddiy o'rganish va rejalashtirish natijasi bo'lishi shart.

**Pedagoglar tomonidan ma'lumot asosida qaror qabul qilish** – qabul qilinayotgan katta-kichik qarolarning barchasi

pedagogning kuzatuvlari asosida qabul qilinishi lozim (bolalarni kuzatish va ularning ota-onalari bilan suhbat natijasida tarbiyachi har bir bolaning kuchli va zaif tomoni hamda uning qiziqishlari haqida bilib oladi).

**Pedagog e'tiborga olishi kerak bo'lgan omillar** – bolaga ta'lim berish bo'yicha qarorlar qabul qilishda **pedagog tayanadigan uch omil mavjud**:

**Bolalarning ushbu yosh guruhiга oid ma'lum bo'lgan billimlarni e'tiborga olish.** Yoshga oid bunday ma'lumotlarni bilish pedagogga ta'lim jarayonini bolalarning yoshiga qarab tashkil etish, qanday material va mashg'ulotlarning xavfsizligi, qiziqarliligi, yetarli darajada murakkabligi va bolalarning mukammal rivojlanishi va ta'lim olishiga xizmat qilishini bilgan holda, mashg'ulotlarni rejalashtirish imkoniyatini yaratadi.Bu yoshga xos omil deb yuritiladi.


**Har bir bolaning shaxsiga oid ma'lumotlarni e'tiborga ollish.** Har bir bola shaxsiyatining kuchli va zaif jihatlari, qiziqish va talab-ehtiyojlari haqida ma'lumot toplash tarbiyachiga ta'lim jarayonida moslatirish jarayonini amalga oshirish hamda har bir bolaga mos usullarni qo'llash va individuallashtirishni samarali olib borish imkoniyatini beradi.

**Bolalarni qurshab turgan ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar haqidagi ma'lumotlarni e'tiborga olish.** Bolaning uydagi va o'zining jamoasidagi hayotini shakllantiradigan qadriyatlar, orzu-umidlar, xatti-harakat va til xususiyatlarini o'rganish pedagogga bolalar uchun muayyan mazmun kasb etadigan, ularning madaniyatiga mos keladigan, bolalar va ularning ollasiga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga yordam beradigan ta'lim muhit va mashg'ulotlarni tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

**Rivojlantiruvchi yondashuv** – bolaning tabiiy ravishda ulg'ayishining muhimligini baholash va tahlil etish imkoniyatini yaratadigan rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv.

**Bolashaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi bu-** butun ta'lim muassasasining faoliyati tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan, unga pedagogik va psixologik takomillashishi uchun qulayliklar yaratilgan, uning tabiiy imkoniyatlari, ko'nikmalari rivojlanishiga va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

<sup>12</sup> Л.С.Виготский.



### 7.3. "Rivojlanish", "Erkinlik", "Mustaqillik", "Ijod", "O'ziga xoslik" shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kategoriyalari sifatida.

Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo'nalishini tubdan o'zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishning birinchi sharti - unga bir butun tizim sifatida yondoshish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir Yosh avlodda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariiga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o'zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasidagi

siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, Mariya Montessori tizimi ham uzoq yillar davomida bolalarga ta'lim-tarbiya berish uchun foydalanib kelinmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: "Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga qulq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak" deb ta'kidlab o'tdilar yalarni bir-biridan farqlaydigan asosiy xususiyatlaridan biri uning bola shaxsiga yo'naltirilganlik darajasidir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning markazida o'sayotgan inson, uning o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va ma'suliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi. **"Rivolanish", "erkinlik", "mustaqillik", "ijod", "o'ziga xoslik" shaxsga yo'naltirilgan ta'limning tayanch iboralari hisoblanadi.** Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xosligi shundaki, bola kimningdir istagi, buyurtmasiga ko'rma emas, o'z imkoniyatlari, salohiyati, tabiat, qobiliyatlariga mos ravishda shakllanadi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning bir yo'nalishi – Montessori metodikasini qo'llashdir.

Ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uni mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Bu jarayon shaxsga yo'naltirilgan hamda unga umuminsoniylik xos bo'lsa, ushbu pedagogik faoliyat insoniy shaxslik darajasiga o'tadi. Insoniylikka yonaltirilgan ta'lim g'oyalari qo'yidagilarda aks etadi: zamonaviy ta'lim umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqqan hamda muayyan jamiyat ma'naviyatiga asoslanadi; ta'lim maqsadi o'zligiga ega, umuminsoniy qadriyatlarga ega shaxsni shakllantirish; ta'lim shaxs faoliyati turi sifatida ichki asosga ega, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining teng munosabatlari, hamkorlikda qaror qabul qilishga tayanadi.

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi. Shalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U o'zining eksperimental maktabida qamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika qxitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va qayotga tatbiq yetdi.

Sh.A. Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

-bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug'dirmoq;

-bolaning qalbi va yuragini uluqlamoq; -boladagi bilishga bo'lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish; -keng va chuqur bilim qamda malaka olish uchun sharoit tuqdirmoq;  
-ideal tarbiya - bu o'z-o'zini tarbiyalamoq.

Sh.A. Amonashvili o'zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalanadi: insonparvarlik; shaxsiy yondashuv; muloqot maqorati; oila pedagogikasining qo'shimcha imkoniyati; o'quv faoliyati. Sh.A. Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baqolash aloqida aqamiyatga yega. Baqolardan foydalanish o'ta cheklangan. Miqdoriy baqolashdan ko'ra sifatli baqolashga urqu beriladi, ya'ni tavsif, natijalar paketi, o'z-o'zini baqolash.

#### 7.4. Shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining maqsadi - tarbiyalanuvchining har tamonlama erkin, ijodiy fikrlashini rivojlantirishga erishishdan iborat. Uilyam Shekspir inson shaxsini va irodasini quyidagicha ta'riflaydi: "Bizning shaxsimiz bu-bog', irodamiz esa-uning bog'boni". Darhaqiqat, bola shaxsi turfa gullarga burkangan boqqa qiyos qilinsa, uning serhosil mevaga kirishi uchun bog'bonning mehnati zarur bo'ladi. Ana shu "bog'bon" bolairodasini mustahkam bo'lishida ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga nisbatan qo'llaniladigan belgilari: - bolada shaxsiy, intelektual, rivojlanish maqsadlari ustuvorligi; - uning yutuq va muvaffaqiyatlari motivatsiyasi, individual rivojlanishini qo'llab quvvatlashga yo'naltirilganligiga urg'u berish; - o'zligini shakllantirish, o'z-o'zini boshqarishga urg'u berish; - ta'lim jarayonini ishtirokchilarining o'zaro sheriklik harakatlari; - bolalarga tanlash erkinligi va ta'lim jarayononi barcha

ishtirokchilariga qabul qilingan qaror uchun shaxsiy ma'suliyat yukdash; - ta'limiy vaziyatlar va voqealarni o'zidan o'tkazish hamda hissiy munosabatlar mavjudligi. Bu horadapedagolgarbolashxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalaga oshirishda quyidagilarni inobatga olishlari lozim:

1. Har bir bolagakomil shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish va unga ishonish.

2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda bolao'zini shaxs deb sezsin, unga bo'lgan e'tiborni tuysin.

3. Tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmaslik, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni o'quvchining shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish.

4. Ta'limda "muvaqqiyat muhitini" tashkil etish, bolagao'qitishda muvaqqiyat qozonishiga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish.

5. Tarbiyalanuvchiga atrofdagilarning har biri o'zi kabi shaxs ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.

Bola shaxsiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim - bu aqliy, emotSIONAL, jismoniy, axloqiy va ma'nnaviy aspektlarni hisobga olgan holda, shaxsni o'qitish orqali tez o'zgaruvchan, ko'p madaniyatli va mustaqil dunyodagi hayotgatayyorlashga yo'nalgan ta'limga bo'lgan yondashuvdir.

#### Savol va topshiriqlar

1. Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim maqsadi nimadan iborat?

2. Bolaga yo'naltirilgan ta'lim yondashuviga ta'rif bering.

3. Individuallashuv yondashuv mazmunini izohlab bering.

4. Rivojlantiruvchi yondashuvga ta'rif bering.

5. Insoniylikka yonaltirilgan ta'lim g'oyalarini sanab bering.

6. Bolashaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini izohlab bering.

7. Ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi qanday ta'sir qiladi?


8. Bolashaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim.

## VIII. BOB.

### MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUAMMOLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

#### 8.1.Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida muammoli o'qitish texnologiyasining tasnifi.

Muammoli o'qitishning asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj.Dyui g'oyalari yotadi. U 1894 yilda Chikago shahrida o'qitish asosini rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. Muammoli o'qitishni o'rganish XX asrning 60 yillarida boshlangan. Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazardan muammoli o'qitish g'oyasi va prinsiplari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Muammoli o'qitish - ta'lism oluvchining muammoli taqdim etilgan ta'lism mazmuni bilan faol o'zaro bog'lanishini tashkil etadi. Bu jarayonda ta'lism oluvchi ilmiy bilimlarning ob'ektiv zidliklari va ularning yechimlariga yaqinlashadi, fikrlash va bilimlarni ijodiy o'zlashtirishga o'rganadi. Muammoli o'qitish texnologiyasining maqsadlarini quyidagi chizmada keltiriladi.



Muammoli o'qitish texnologiyasida pedagogik jarayon samaradorligi omillari:

o'quv materialining muammoli shaklda berilishi

ta'lism oluvchilarining faolligi

ta'lismni hayot, o'yin, mehnat bilan bog'liqligi

Muammoli o'qitish ijodiy faoliyatni hamda unga ehtiyojni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda ta'lism oluvchilar ijodiy fikrlashning rivojlanishi an'anaviy o'qitishdagiga nisbatan jadalroq bo'ladi. Muammoli o'qitishni ta'lism jarayoniga tadbiq etishda ta'lism beruvchi ilmiy va o'quv muammolar orasidagi farqni va umumiyligini ajratishi lozim. Ularning umumiyligi har ikkilasida ham ob'ektiv zidliklar mavjudligi bo'lsa, ilmiy va o'quv muammolarini farqi shunda-ki, ilmiy muammoda qo'yilgan masala hali yechilmagan, o'quv muammoda esa masala yechilgan, uni yechish yo'li va natijasi ham ma'lum. Faqat bu yo'llar va natijalarni ta'lism oluvchilar izlab topishlari kerak. Muammoli o'qitishning yakuniy maqsadi - muammolarni ko'rish, sababini aniqlash, yechimini topish va oqibatlarini bilishga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu faqat faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Shaxsning ijodiy, mustaqil fikrlovchi bo'lishi jamiyat uchun zarur bo'lib, fikrlash jarayoni muammoli vaziyatdan boshlanadi. Muammoli vaziyat - psixik qiyinlik, ziddiyatli vaziyati bo'lib, ta'lism oluvchilarni muammoli vaziyat holatiga tushirish orqali ularda fikrlash qobiliyatları rivojlantiriladi. Muammoli o'qitish texnologiyasiga qo'yidagi metodlar kiradi

Tadqiqiy  
metod

Evristik metod

Muammoli  
vaziyat metodi

Muammoli o'qitish ta'limga beruvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir daqiqasini hisobga olishni, ushbu vaqtida kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. **"Muammoli vaziyat" metodi** - ta'limga oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir. "Muammoli vaziyat" metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'limga oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'limga oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi.

Muammoli ta'limga texnologiyasini mutlaqo yangi pedagogik hodisaga bog'lab bo'lmaydi. Uning elementlarini Sokrat tomonidan olib borilgan evristik suhbatlarda, J.-J Emil uchun saboqlar ishlab chiqishda ko'rish mumkin. Russo. K.D.Ushinskiy muammoli o'qitish texnologiyasi masalalarini ham ko'rib chiqdi. U o'quv jarayonidagi muhim yo'nalish mexanik harakatlarni oqilonra harakatlarga aylanishdir, degan fikrni bildirdi. Sokrat ham xuddi shunday qildi. U o'z fikrlarini tomoshabinlarga majburlashga urinmadidi. Faylasuf o'z shogirdlarini bilim sari yetaklovchi savollarni berishga intilgan. Muammoli ta'limga texnologiyasining ishlab chiqilishi ilg'or pedagogik amaliyotda qo'lga kiritilgan yutuqlarning klassik o'qitish turi bilan uyg'unlashuvi natijasi bo'ldi. Ushbu ikki yo'nalishning birlashishi na-

tijasida o'quvchilarning intellektual va umumiy rivojlanishi uchun samarali vosita paydo bo'ldi. Ayniqsa, muammoli ta'limga yo'nalishi XX asrda faol rivojlana boshladi va umumta'limga amaliyotiga kiritila boshlandi. Bu konseptsiyaga 1960 yilda J. Bruner tomonidan yozilgan "O'quv jarayoni" asari eng katta ta'sir ko'rsatdi. Unda muallif muammoli o'qitish texnologiyasi bitta muhim g'oyaga asoslanishi kerakligini ta'kidlagan. Uning asosiy g'oyasi shundaki, yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni eng faol asosiy funksiya intuitiv fikrlashga tayinlanganda sodir bo'ladi. Mahalliy pedagogik adabiyotga kelsak, bu g'oya unda o'tgan asrning 50- yillaridan boshlab amalga oshirildi. Olimlar gumanitar va tabiiy fanlarni o'qitishda tadqiqot metodining rolini kuchaytirish zarurligi haqidagi g'oyani qat'iyat bilan ishlab chiqdilar. Shu bilan birga tadqiqotchilar muammoli ta'limga texnologiyasini joriy etish masalasini ko'tara boshladilar. Zero, bu yo'nalish o'quvchilarning fan uslublarini puxta egallashiga imkon beradi, tafakkurini uyg'otadi va rivojlanadiradi. Shu bilan birga, tarbiyachi o'z o'quvchilarigabilimlarni rasmiy ravishda etkazish bilan shug'ullanmaydi. U rivojlanish va dinamikada kerakli materialni taklif qilib, ularni ijodiy tarzda etkazadi. Bugungi kunda ta'limga jarayonining muammoli tabiatini bolalarning aqliy faoliyatidagi aniq qonuniyatlardan biri sifatida qaralmoqda. Muammoli o'qitish texnologiyasining turli usullari ishlab chiqilgan bo'lib, ular turli o'quv fanlarini o'qitishda qiyin vaziyatlarni yaratishga imkon beradi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar ushbu yo'nalishni qo'llashda kognitiv vazifalarning murakkabligini baholashning asosiy mezonlarini topdilar. Federal davlat ta'limga standartining muammoli ta'limga texnologiyasi muktabgacha ta'limga muassasalarida, shuningdek, umumiy ta'limga, o'rta va oliy kasb-hunar muktablarida o'qitiladigan turli fanlar dasturlari uchun tasdiqlangan. Bunday holda tarbiyachi turli usullarni qo'llashi mumkin. Ular muammoli ta'limga texnologiyalaridan foydalangan holda ta'limga jarayonini tashkil etishning oltita didaktik usullarini o'z ichiga oladi. Ulardan uchtasi tarbiyachi tomonidan mavzu materialini taqdim etish bilan bog'liq. Qolgan usullar – tarbiyachi tomonidan bolalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish. Keling, ushbu usullarni batafsil ko'rib chiqaylik.

## 8.2.Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida muammoli o'qitish texnologiyasining yo'llari.

**Muammoli ta'lif texnologiyasiga oid "Nima uchun?" interfaol metodi.** Bunda tarbiyachi bolalarni o'zini namoyon etishga undaydi. Topshiriqlarning "isbotla", "tushuntirib ber", "qanday bilding, aytib ber" kabi turlaridan foydalanadi. Bolalar bitta buyum va xuddi shu buyumning turlarinio'rganadi. Savol-javob asosida turli nutqiy didaktik o'yinlar, sabab-oqibat munosabatlarini o'zlashtiradi. Bolalarning so'z boyligi oshadi, kommunikativ kompetensiyalar rivojlanadi, ona tili haqidagi tasavvuri kengayadi, o'z kuchiga ishonchi tarbiyalanadi.

Muammoli ta'lif – tarbiyachi o'quv materiallarini bolalarning ongida ilmiy izlanish asosida bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan usulda o'rgatish uslubidir. Muammoli o'qitish bu – ta'lif sifatining yangi bosqichi. Hozirgi davrda ta'lif oluvchilarga ma'lumot va tavsialarning ma'lum to'plamini berish unchalik ahamiyatli emas, balki ularning ma'lumotlarni mustaqil tarizda olishi va o'z bilimiga aylantirishi uchun aniq èndashuvlarga ega bo'lishi muhimdir. Albatta, ayrim ma'lumotlarni ma'ruza vaqtida yetkazish imkonи bo'lmay qoladi, ammo tejalgan vaqtlar hisobiga xulosalar chiqariladi, umumlashtiriladi va dunèqarashini shakllantiradi. Bunda bolalarning mustaqil va tanqidiy fikr yuritib, har tomonlama asoslangan qarorlar qabul qilishi ahamiyatlidir. Ushbu muammoli o'qitishning maqsadi shundaki, bilimlarni quruq èdlab olish emas, balki kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Muammoli vaziyat tarbiyachi va tarbiyalanuvchining ma'lum psixik holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqlarni bajarish (masala yechish, savolga javob topish) jaraenida ziddiyatlarni aniqlash tufayli vujudga keladi. Muammoli o'qitishning to'rt bosqichdan iborat mantiqiy shakli paydo bo'ldi:



Lekin tarbiyachibolalarga berilgan topshiriqlarning javobini bilmagan savollarning hammasi ham muammoli vaziyatni vujudga keltirmaydi. «Muammoli o'qitish» atamasi asosida masala tushunchasi bo'lishi mumkin emas. Aks holda, uni metodologik jihatdan asoslash kerak bo'ladi. Ijodiy qobiliyatini shakllantirish uchun o'quvchi-talabalarni doimo savol berishga undash lozim. Yo'q joydan savolning qanday paydo bo'lishini ko'rsatish, dars so'ngida qarama-qarshiliklar oydinlashtirilib berilishi zarur. Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jaraenida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni yechishdan iborat bo'lib, uning asosida didak-tik ziddiyatlar etadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish èki ilmiy bilish yo'li, balki shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Muammoli ta'lif konsepsiyasining asosiy tushunchalari «**Muammoli vaziyat**», «**muammo**», «**muammoni topish**» kabilalar hisoblanadi. Muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib, o'zida sub'ektni aniq èki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar bolalarda qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa, shubhasiz, u muammoli vaziyat yechimini qabul qilmaydi, ya'ni muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muammo


mohiyatining tushunib yetilishi, ifodalanishi, mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi va har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoèn etadi, biroq barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi. Mazkur metoddan foydalanish jaraènida muammo yechimini topishga èrdam beruvchi yo'naliishlar o'quvchi-talabalarga ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Agarda muammoda yechimning qandaydir ko'rsatkichlari ko'rsatilsa, u hola muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni, muammoli vaziyatni ham qamrab olish kerak. Agarda inson muammoli vaziyatga duch keladigan bo'lsa uni har doim muammoli masalalarni yechimni topadi, ya'ni uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda ham, u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi boshlaydi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi. Ta'lif jaraènida muammoli metodni qo'llashda tarbiyachiva bolalartomonidan kabi nazariy-metodik xarakatlari amalgga oshiriladi.

Tadqiqotchilikda ushbu o'qitish metodini qo'llashda tarbiyachiva bolalarbilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab olishga èrdam beradi va o'quvchi-talabalar mustaqil ravishda taklif etilgan masalani yechimini topish jaraènida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib uning yechimini boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydilar.

Tarbiyachifaoliyatining tuzilmasi quyidagicha:

- o'quv materialiga oid tafovutlarning taklif etilishi;
- muammoli vaziyatlarni tuzish;
- muammoning mavjudligini aniqlab berish;
- muammoli topshiriqlarni loyihalash O'quvchi-talabalar faoliyatining tuzilmasi
  - o'quv materiali mohiyatining anglab yetilishi;
  - muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash; •mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash;
  - muammoli masalaga o'tkazish;

•topshiriqni bajarish faoliyatini olib borish ko'nikmasi, ega bo'ladlar. Ta'lif jarayonidamuammoli o'qitish metodini qo'llashda tarbiyachiva bolalar tomonidanharakatlar amalga oshiriladi.



Xulosa qilib aytganda muammoli o'qitish orqali bolani o'z fikrini ayta olishga, uni himoya qilish va bahslashishga o'rgatish mumkin. O'qitish jaraènida qarama-qarshilik bo'lmasa, bahs ham, munozara ham bo'lmaydi. Munozarasiz esa muammoning yechimi topilmaydi. Mashg'ulotjaraènida bir-biriga hurmat, ishonch va ishchanlik ruhi hukmron bo'lishi kerak. Bolalar tarbiyachining o'rgatishga samimiy intilaètganini bilishi, uni o'ziga teng ko'raètganini yaqqol his qilishi zarur. Bu esa, shubhasiz, o'qitishda shaxs omilini hisobga olish, birga ishslash pedagogikasini qo'llash va ta'limni insoniyashtirish bilan uzviy bog'liq. Tarbiyachi o'qitishning muammoli shakli orqali bolalargafikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular mustaqil ravishda izlanish va mantiqiy o'ylab, to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishga davat etadi.

#### Savol va topshiriqlar

1. Muammoli ta'lif texnologiyasining maqsadi nima?
2. Muammoli ta'lif yo'naliishi qachon paydo bo'lgan?
3. Muammoli o'qitishning afzallikkleri nimada?
